

Fayzullaning bolaligi Mirzacho'lning qoq kindigida joylashgan qishloqda, ta'bir joiz bo'lsa paxta ichida o'tdi. Ko'klam yagana, yoz bo'yi chopiq, kuzdan esa deyarli Yangi yilgacha davom etadigan terim. Avvallari qishda sal nafas rostdab olardi, ammo yoshi katta bo'lgach akasi Saydullaga qo'shilib yaxob suvi qo'yishga chiqa boshladi. Shuncha ish yosh boshida bo'lishiga qaramasdan Fayzulla hayotda texnikaga, maktabda esa aniq fanlarga qiziqib o'sdi. Balki shu sabablidir maktabni bitirgan yiliyoq politexnika institutiga o'z kuchi bilan kirib ketdi. O'qishni tugatgach, yo'llanma bilan shahardagi katta bir zavodga ishga bordi. Injener bo'lib ishladi. Yosh mutaxassis sifatida to'rt yildan keyin unga bir xonali uy berishdi. Uylandi. Avval o'g'illi bo'ldi. Ikki yildan keyin qizli. Ammo...

Falokat oyoq ostida deganlari rost ekan. Endi chopqillay boshlagan ikki yarim yashar qizchasi "dom" qarshisidagi bolalar maydonchasida o'ynab yurib, beton ariqchadan sakrab o'taman deganda oyog'i ariqqa tushib ketgan. Muvozanatini yo'qotgan qizaloq bir aylanib orqasi bilan beton ariqchanning qirrasiga urilgan. Ana shunda qizaloqning hali nozik umurtqa pog'onasi qattiq lat yegan ekan. Do'xtirlar avvaliga buni payqashmagan. Payqashganida esa kech bo'lgan ekan.

Habiba avvaliga oqsoqlana boshladi. Dilnoza qizalog'ining oyog'iga qo'y dumbasidan surdi, massaj qildi. Habiba bora-bora yurmay ham qo'ydi. Er-xotinning obormagan do'xtirlari qolmadi. Hatto eskicha ham qilib ko'rishdi. Befoyda. Habiba to'rt yoshga to'lgan kunini nogironlar aravachasida kutib oldi.

Dilnozaning bo'lari bo'ldi. Lo'mbillagan juvon birdan ozib ketdi, ko'zlari kirtaydi. Fayzullaning ahvoli xotinidan battar bo'lsa battar ediki, yaxshi emasdi.

Do'xtirlarning qayta-qayta bergan tavsiyalariga qaramasdan, er-xotin Habibani nogiron bolalar uyiga berishmadi. Axir, ko'zlari mo'ltirab turgan shiringina qizaloqdan qanday qilib ajralishsin... Tili biyron, o'zi oqila...

Dilnoza maktabdagi ishini tashladi hisob. Fayzulla ham ishini tugatar-tugatmas uyga chopadi. Qizaloq nogironligi bois uydan ko'chaga chiqolmasdi. Faqat aravada. Fayzulla qizchasiga tabiatni ko'rsatmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda ikki yilcha qattiq ishlab, yetmaganiga qarz-havola qilib bo'lsa ham sal eskiroq, lekin ishonchli "Damas" sotib oldi. Shu mashinada Habibani tog'larga olib chiqishdi, Samarqand-Buxoroga olib borishdi, muqaddas joylarni birgalikda ziyorat qilishdi.

"Habiba bir kuni tuzalib ketadi!" Er-xotin mo'jizaga ishonib yashashdi. Er-xotin mo'jizani kutib yashashdi.

Shu alfozda o'n yildan ko'proq vaqt o'tdi.

Er-xotinning baxtiga Azimjon esli-hushli bola bo'lib o'sdi. Ko'p vaqtini uyda o'tkazadi. Maktabdan keldi deguncha singlisining yoniga oshiqadi. Unga turli-tuman kitoblar o'qib beradi. Natijada aka-singil ashaddiy kitobxon bo'lib qolishdi. Azim esa, singlisiga o'qib bergani yetmaganday, kechalari ham xonasiga qamalib olib bir asarlarni erinmasdan qayta-qayta mutolaa qiladigan bo'ldi. Sezgir Habibaning aytishiga qaraganda, Azim keyingi paytlari she'r ham yozayotganmish. Dilnoza shu haqda aytganida Fayzulla ishonmadi. Avval kulib qo'ya qoldi, keyin jiddiy tarzda o'z fikrini bildirdi:

Qarqunoqdan bulbul chiqmaydi, ayasi. Kelib-kelib bir injener bilan bir matematika o'qituvchisining bolasi shoir bo'ladimi? Bu bir havas bo'lsa kerak-da. Balki birontasini sevib qolgandir.

Dilnoza norozi tarzda qoshlarini chimirdi:

Nima, sizam shu yoshingizda birovni sevib qolib, she'r yozganmisiz?

Fayzulla aniq javobdan o'zini olib qochdi:

E, men shunchalik ko'p qizlarni sevib qolganmanki, doston yozsam ham baribir yetmasdi. Shuning uchun hech narsa yozmay qo'ya qolganman.

Shu bilan Azimning shoirligi masalasi ochiq qoldi.

Bolasiga andarmon bo'libmi, Fayzulla qishloqqa kam boradigan, to'y-ma'rakalarga kamroq aralashadigan bo'ldi. Mabodo biron qiyolmaydigan xesh-urug'inikiga borib qolsa ham uyga qaytguncha shoshardi. Yuragi hapriqib ketaverar, xuddi uyda biron nima yuz bergandek bo'laverardi. Qishloqdoshlar, qarindoshlar ham uning ahvolini tushinishgan shekilli, bu borada unchalik ko'p bezovta qilishavermasdi.

Lekin bu oila boshiga tushadigan g'am-alamlar, ayriliqlar, qayg'uli ko'rgiliklar bir chekkada o'z fursatini kutib yotgan ekan.

* * *

Avgust oxirlari.

Sexda ish qizg'in ketayotgan edi. Tomi baland binoda tinmay ishlayotgan dastgohlarning shovqin-suroni olamni tutgan. Ko'zoynak taqqan ishchilar dastgohlar charxini aylantirib, metallni qirqqanida uzluksiz uchqunlar oqimi ko'kka o'rlaydi.

Fayzulla bino chetidagi temir zina bilan chiqiladigan, eshigiga "Sex boshlig'i" deb yozib qo'yilgan kabinetida navbatdagi buyurtma detal chizmasini usta Mirkarim bilan o'rganib o'tirgan edi. Xayriyatki, eshik zich bekitilsa bu yerga shovqin unchalik kelmaydi. Shu sababli u o'zining qo'l telefoni jiringlaganini bemalol eshitdi. Fayzulla chizmadan ko'z uzmagani ko'yi shoshilmasdan stol tortmasida turgan qo'l telefonini oldi.

Eshitaman.

Fayzulla apparatni qulog'iga qattiqroq bosdi va akasi Saydullaning baqirgan ovozi eshitdi. So'ng ular orasida shunday suhbat bo'lib o'tdi.

Fayzulla, o'zingmisan... O'zingmisan?

Ha, menman. Saydulla aka?

Menman, uka, menman.

Assalomu alaykum, aka. Tinchmisiz, uydagilar...

Yaxshi, yaxshi. Qisqasi, ertaga Mardonning to'qqizini olib borayapmiz. Kechi bilan o'n birga yetib kelmasang bo'lmaydi, uka. O'n ikkida jo'naymiz.

Bu xabarni eshitgan Fayzulla quvonib ketdi.

Muborak bo'lsin, aka, muborak bo'lsin. Aytganday, Mardonjon hali yosh emasmi? Azimjondan besh yosh katta edi shekilli.

E, yoshi qoptimi! Yigirmaga kirayapti, yigirmaga! Nima, hamma senga o'xshab o'ttizga kirganda uylanishi kerakmi?

O'ttiz emas, yigirma yetti. Ha, mayli, eng muhimi ikki yosh baxtli bo'lsin...

Yetib kelasan-a. Atay seni deb shanbaga to'g'riladik. Xafa bo'lmagin-u, boshqa kunni aytsak ishni bahona qilishing tayin-da, uka.

Bu gapni eshitgan Fayzulal beixtiyor kulimsirab qo'ydi:

Ertagayam ish kuni, aka.

Shaharda shanba kuniyam ish bo'larkanma?

Oyning oxiri, aka, oyning oxiri.

Jahli chiqib ketdi shekilli, Saydulla aka sal iddao bilan gapirishga o'tdi:

Oxir-poxirini bilmayman. Qaytib bo'lsayam yetib kelasan, tamom-vassalom! Axir seninggam yoshing ellikka yaqinlashib qoldi, uka. Bunday bir elga qo'shil-da. Bilib qo'y: ertan to'yingda, ma'rakangda begonalar emas, shu yomon jigarlarining kuningga yaraydi.

Xo'p, aka, xo'p. Albatta yetib boraman, shoshib gapirdi Fayzulla.

Shunday bo'lsin, uka, endi sal mamnun tarzda gapirdi Saydulla aka. Kelin bilan bolalarniyam olib kel.

Ular endi katta to'yda borishar, aka, aniq bir gap aytishga iymandi Fayzulla. Aytganday, sotka o'zingiznikimi, aka. Nomerini saqlab qo'yay degandim.

E, to'y qilayotgan odamda sotka nima qilsin?! Bu artist bollarniki. Qaysi kunlari bo'shligini bilay deb kelgandim... Mayli, uka, buning chiqillatib pul urib yotibdi.

Xo'p, aka, xo'p. Albatta yetib boraman. Bizdan nima xizmat, aka?

Kelaver qani, xizmat bo'lsa qochib ketmas...

Qo'l telefonidan qisqa-qisqa gudoklar eshitildi. Fayzulla devordagi kalendarga qarab, o'ylanib qoldi. Darhaqiqat, oyning oxiri.

Rejani bajarish uchun sex ishlashi kerak. Ammo to'yga bormasayam bo'lmaydi akasining ko'ngli og'riydi.

To'ymi deyman, Fayzulla aka? dedi usta Mirkarim chizmadan boshini ko'tarib.

Ha, dedi apparatni yana tortmaga solgan Fayzulla. Akam o'g'lini uylantirayapti. Ertaga to'qqiz jo'natishar ekan.

Usta Mirkarim qo'l siltadi:

Siz bemalol borib, xizmatlarni qilib kelavering, xo'jayin. Boshimdan o'tgan, yaxshi bilaman. Ertan-bir kun o'zingizning to'y-ma'rakangizda begonalar emas, shu jigarlaringiz kuningizga yaraydi. Begona yeydi-ichadi, ketadi, xizmatni joni achiydigan yaqinlaringiz qiladi. O'zbekning to'y-ma'rakasi ma'lum.

Fayzulla boshini qashladi:

Qani, avval manavi detal masalasini hal qilib olaylik-chi...

Ikkovlon yana chizma ustiga engashishdi.

* * *

Baribir bormasa bo'lmas ekan. Axir bir qorindan talashib tushgan akasi. Odam deb chaqirib turgandan keyin.

Fayzulla tongda yo'lga tushdi.

Yoz oyoqlayotganiga qaramasdan kun issiq edi. Bu hol ayB-B-niqsa qishloq yaqinlashgan sayin yaqqol sezila boshladi.

Terlab-pishib ketgan, bo'yniga oq ro'mol tashlab olgan Fayzulla eski "Damas"ida o'nqir-cho'nqir yo'lda rosa qiynaldi. Mashinaning goh u balloni, goh bu balloni chuqurga tushib ketadi. Ba'zan birdan ikkala oldingi ballon ham chuqurlikka "qars" etib tushadi, shunda joyidan uchib ketgan Fayzulla boshini kabina tepasiga urib oladi. Bunaqa mahallari Fayzulla alam bilan boshini qashlaydi:

O'h-h!.. Yo'lmisan yo'l bo'libdi-da o'ziyam!

Nihoyat qadrdon qishloqning pastak uylari ko'zga tashlandi. "Damas" biroz yurgach, o'ngga, tuproq yo'lga qayrildi. Shu zahoti mashina quyuq changga ko'mildi. Dimog'iga chang kirgan Fayzulla yo'tala-yo'tala mashinasini tomi qizil shiferli, atrofi paxsa devor bilan o'ralgan uy oldiga olib kelib to'xtatdi.

Devor yonida kapoti ustiga bo'g'chalar taxlangan eski "Moskvich". Mashina yonida betoqatlik bilan shu tomonga qarab turgan ellik besh yoshlardagi, ammo yoshiga nisbatan qarimsiq ko'rinadigan Saydulla aka bilan uning qirq yillik o'rtog'i Xudoyberdi aka. Erkaklardan sal narida Saydulla akaning xotini, ozg'in Zamira yanga bilan uning singlisi Rahima xola ham ko'rindi.

"Damas" bir olam quyuq changga ko'milib to'xtadi va undan hamon yo'talayotgan Fayzulla tushib keldi. Saydulla aka ukasiga peshvoz chiqdi. Aka-uka quchoqlashib ko'rishishdi.

Bormisan, uka? Yo'lingga sarg'ayib qarayverib ezilib ketdik-ku.

Assalomu alaykum. To'ylar muborak, aka.

Rahmat, uka, rahmat.

Oraga Xudoyberdi aka aralashdi:

Har kimni to'yga yetkazsin. Yaxshi yetib keldingmi, uka!

Fayzulla Xudoyberdi aka bilan ham quchoqlashib ko'rishdi, so'ng ortda turgan ayollarga salom berdi:

Assalomu alaykum, yaxshimisiz, checha... Siz yaxshimisiz, opa!

Zamira yanga quvonib bosh irg'adi:

O'zingiz yaxshimi, kelin, bolalar...

"Damas"ga tanqidiy ko'z tashlagan Xudoyberdi bir nimani ma'qullaganday bosh irg'ab qo'ydi.

Tuzuk, tuzuk... Bo'lmasa gap bunday, uka. So'rashib o'tirishga vaqt yo'q. Ho'kiz-po'kiz ortilgan gruzovoyini ertalab o'zim jo'natib yuborganman. Kecha xabar olgani borganimda Ashirmat ko'rning avzoyi buzuqroq edi. Ertaroq bormasak bo'lmaydi. Ko'r janjal qilib turgan bo'lsa, bolalar nima qilishini bilmay garang bo'lib o'tirgandir. Tuzukmi?

Qaysi Ashirmat aka? hayron bo'lib so'radi Fayzulla.

Xudoyberdi aka alamini olishga fursat kelganday birdan tutab ketdi:

E, qudaning bir dog'uli tog'asi bor. Xudoyam bilib turib bir ko'zini ko'r qilib qo'ygan-da. Tekinini olayotganda kap-katta ho'kiz ko'ziga tirraqi buzoq bo'lib ko'rinadiganlardan. Boraylik, o'zing ko'rasan. Hangomani borib kelgandan keyin, kechqurun uyda bemalol yonboshlab olib qilaveramiz, uka. Tuzukmi? Hozir shoshilmasak bo'lmaydi.

Shunaqami? Mayli, mayli... darrov rozi bo'ldi Fayzulla. So'ng cho'ntagidan ikki dasta ming so'mlik chiqardi: Aytganday, aka, atagan to'yonamiz. Oz bo'lsayam ko'p o'rni da ko'rasiz endi, aka.

Saydulla aka mamnun bo'lib pulni oldi va yuzini barmoqlariga siypadi.

Baraka top, uka. Iloyo to'ylaringda qaytsin.

Boshqalar ham fotihaga qo'shilishdi.

Shundan so'ng Xudoyberdi aka ishchanlik bilan kaftlarini bir-biriga ishqladi.

Uka, qani, bu bo'lka noningning orqasini och-chi. Bi-ir narsalarni reviziya qilib olaylik-chi. Xudoyberdi aka cho'ntagidan ro'yxat yozilgan qog'oz chiqarib, belgilay boshladi: Tuzukmi? Xo'sh, ho'kiz, ikki qop un, bir qop guruch, moy, go'sht, o'ttizta suv bularning gruzovoyda ketdi. Bizga qoladi... Hoy, kelin, ort narsalaringni.

Fayzulla shoshib "Damas"ning ort eshigini ochdi, Zamira yanga bilan Rahima xola bo'g'chalarni ko'tarib kela boshlashdi.

Xudoyberdi aka ro'yxatni tekshirib turdi.

To'qqiz kiyimlik toza material. Bormi?

Zamira yanga bir bo'g'chani ko'rsatdi:

Mana.

Tuzuk. Ortaver, dedi Xudoyberdi aka. To'qqizta ro'mol.

Rahima xola boshqa bo'g'chani ko'rsatdi:

Bu yerda.

Tuzuk. To'qqizta lozimlik. O'ziga savol nazari bilan qaragan Xudoyberdi akaga Zamira yanga qo'lidagi bo'g'chani ko'rsatadi.

Demak, bor. Ortaver. Tuzuk, tuzuk.

Xudoyberdi aka o'yxatni ko'ziga yaqin olib borib o'qidi:

To'qqiz par tufli.

Tufli dan uch par oldik, dedi Zamira yanga allanechuk shoshib. Hozir razmenga ishonib bo'lmasa... Qolganini yoshlar o'zlari to'ydan keyin olishar, jezda.

Xudoyberdi aka beparvo tarzda yelka qisdi:

Men bilmayman. Buni imi-jimida qudag'ay bilan o'zing kelishib olsang yaxshi bo'lardi... Hay, mayli, boraylik-chi, toza qo'ymasa olti parining pulini berarmiz. Tuzukmi?.. Xo'sh, bularning barisining ustiga bitta tilla uzukmi, sirg'ami qo'yish kerak ekan. Tayyormi?

Buni eshitgan Rahima xola birdan tutaqib ketdi:

Jezda, qudalarda insof bormi o'zi? Eldan burun buncha talaydi bizni? O'zi ZAGS uzuginiyam biz olgan bo'lsak!

Xudoyberdi aka yana yelka qisdi:

Men bilmayman. Toza to'polon qilishsa bu xotirlarning ishi, o'zlari kelishib oladi deb turib olaman.

To'polon qiladiganini menga qo'yib beravering, jezda! deya Rahima xola xuddi hozirning o'zida urishadiganday vajohatda yengini shimardi.

Buni ko'rgan Xudoyberdi aka darrov nasihat ohangiga o'tdi:

Uytib to'ydan burun elga sharmanda bo'lib yurma, bekach. Tuzukmi? Gaplashsang keyin... anavi junboshni uyga olib kelganingdan keyin, asta o'mrovidan chimchilab o'yib olib...

Hali uyga olib kelib olaylik u yer yutkurni! Asabiy tarzda titrab-qaqshayotgan, burun kataklari kerilgan Rahima xola bo'sh kelmadi: Orqasini yer iskattirmay ishlataman!

Ayollarni tekshirishni tugatgan Xudoyberdi aka endi "Moskvich" ballonlarini ko'zdan kechirayotgan Saydulla akaga o'girildi:

Qalindan ikki yuz ming qolgandi, oldingmi? Salomdan burun shuni bermasang Ashirmat ko'r oldiga solib haydashdan ham toymaydi! Tuzukmi?

Saydulla aka turgan joyida o'ylanib qoldi. So'ng jur'atsizlik bilan so'radi:

Yuzga ko'nmasmikan?

Ko'nmaydi u enag'ar ko'r! Xudoyberdi aka keskin bosh chayqadi. "Bir so'm kam obkelsang to'yni buzaman!" deb meni qasamga tayagan u!

Qani, boraveraylik-chi...

Yo'q, jo'ra, bunaqasi ketmaydi, oyoq tirab turib oldi Xudoyberdi aka. Senga indamasayam, bari "Sen sovchi bo'lgansan, non sindirgansan" deb menga guvlab yopishib qolib, ko'z ochirmay qo'yadi. Ashirmat ko'rga-ku, xudo bas kelmasa, bandasi bas kelolmaydi. Echkiemarday yopishib oladi enag'ar...

Saydulla akaniki ham tutib qoldi:

Toza joningni olibdi-ku, bu Ashirmat deganlari. Nima desa "xo'p" deyavermasdan munday bir bizning yonimizni olib talash-tortish, tushuntir-da, jo'ra.

E, tushuntiraverib charchadim, tomoqlarim xirillab qoldi. "Rasm-rusumimiz" shu deb bez bo'lib turaverishadi, kuyunib gapirdi Xudoyberdi aka.

Nima, biz pulni supurib olayotgan ekanmizmi? to'ng'illadi Saydulla aka.

Xudoyberdi aka yelka qisib qo'ydi-da, ko'krak cho'ntagidan zanjirli soatini chiqarib qaragach:

Men aytdim... qo'ydim, dedi. Qolganini o'zing bilasan... Qani, ketdikmi?

Ketdik, dedi yuqori labi pir-pir ucha boshlagan Saydulla aka.

Ayollar "Damas"ga minadi, buyruq berdi Xudoyberdi aka. Biz Saydulla bilan o'zimizning "tap-tap"da. Tuzukmi?

Tuzuk, dedi Fayzulla kulimsirab.

Ayollar "Damas"ga o'tirishdi. Saydulla aka bilan Xudoyberdi aka "Moskvich"ga. Rulda Xudoyberdi akaning o'zi ekan. Oldinda "Moskvich" chang ko'tarib yo'lga tushdi. Unga "Damas" ergashdi.

Orqada qovog'idan qor yog'ib o'tirgan ayollarga qarab qo'yarkan, Fayzulla iloji boricha ko'tarinki kayfiyatda gapirishga urindi:

Aytganday, checha, yetti-sakkiz yasharligimda toqqa, Xo'shboq tog'amnikiga to'qqiz olib borgandik. O'shanda "Qudalar keldi" deb rosa ustimizga un sochishgandi, bir-ikkita ayollar og'zimizgayam un tiqishgandi. Ishqilib, bugun unga belanib qolmaymizmi?

Birov bilan urishgani borayotganday tumtayib olgan Zamira yanga yo'ldan ko'z uzmagan ko'yi uf tortdi. Keyin:

E, u urflar o'zgarib ketgan, dedi. Endi bir-ikki kilo "Rachki" kampitidan olib chiqib, yo boshimizdan sochishadi, yo bir hovuchdan tarqatib chiqishadi.

Buni qarang-a... Fayzulla hayron bo'lib bosh chayqab qo'ydi.

* * *

Qudalarning uyi qo'shni tumandagi xo'jalikda ekan. Bir soatcha yurishdi.

"Moskvich" bilan "Damas" paxsa devorli oddiygina uy yonida oldinma-keyin to'xtadi. Fayzulla sal nariroqda turgan usti ochiq "Gaz-51" yuk mashinasini ko'rdi. Mashina ustida ho'kiz pishqirib turardi.

Mashinalaridan tushishgan Saydulla aka, Xudoyberdi aka, Zamira yanga, Rahima xola, Fayzulla taqa-taq berk darvoza yonida to'planishdi.

Birov kel deb kutib olmayapti-ya, dedi Fayzulla hayron bo'lib.

Echkiga jon qayg'usi, uka, miyig'ida iljaydi Xudoyberdi aka. Lozim odamlarga uch-to'rt so'm tarqatmaguncha darvoza hatlab

o'tolmaymiz. Urfimiz shu. Tuzukmi?

Shu payt ularning yoniga yuk mashinasi tarafdin beliga oq belbog' bog'lagan, do'ppi kiygan yigirma yoshlardagi Eldor chopib keldi. Eldor javdirab Saydulla akaga qaradi:

Qip-qizil jinni ekan-ku katta qudangiz! Buqani endi tushiraman deb tepalik izlayotsam kela solib "Yo'qot bu tirraqi buzoqni! Meni elga sharmanda qiladigan bunaqangi quda-andalar kerak emas!" deb bo'kirib berdi.

Xudoyberdi aka o'rtog'iga ta'nali boqdi:

Aytgandim-ku, jo'ra. Bu hali boshlanishi. Xo'sh, yana nima dedi?

E, ko'p gapni aytib tashladi! kuyinib tushuntirishga tushdi Eldor. Cho'ntagidan chopqi chiqarib, unqopni teshib ko'rdi. "Ekkinchi sort ekan! Bizga visshiy sort kerak!" deb bo'kirdi. Guruchni ko'rib "Bu oqshoqni boshimga uramanmi!" dedi. Moyni kam dedi.

"Suvning eng arzonidan olibsizlar! Buni dasturxonga qo'yishgayam uyalaman!" dedi. Ishqilib, rosa sasidi!

Ko'r ushlaganini qo'ymaydi, deganlari shu-da, bosh irB-g'adi Xudoyberdi aka. Hay, oxiri meva-chevani oldimi?

To'ng'illay-to'ng'illay, yuz ming so'm qo'shib berish sharti bilan oldi. Lekin ho'kizni qaytarib olib ketinglar, yo bo'lmasa yoniga bitta bo'rdoqi qo'chqor qo'shinglar, degan shart qo'ydi. Keyin "El oldida uyalib qolmaslik uchun o'zimning katta qo'chqorimni so'yaman", dedi. "Aytganlarimni qilmasalaring orqaga qaytib ketaveringlar, sizlarga beradigan ko'chada qolgan qizimiz yo'q" dedi.

Uyga borsin hali bu kelin, uyga borsin hali! mushtlarini bir-biriga urdi Rahima xola. Shunday o'ynatayki...

Shunisigayam shukr, dedi Xudoyberdi aka kutilmagan xush kayfiyatda. Demak gapga ko'nishga mayli bor. Qani, jo'ra, yuz ming ber-chi. Bir ichkariga kirib tirraqi buzoqni buqaga aylantirib chiqay. Agar ko'nsa bu ko'r.

Saydulla aka norozi tarzda bir dasta ming so'mlik berdi. Xudoyberdi aka darvozaga tutash kichkina eshikni g'iyqillatib ochdi va zipillab ichkariga kirib ketdi.

Fayzulla xavotirlanib so'radi:

Ishqilib, ko'narmikan bu Ashirmat deganlari?

Ko'nadi, dedi Saydulla aka ishonch bilan. Ko'nmay qayoqqayam borardi? Endi, uka, uning ham o'ziga yarasha maqsadi bor-da: buqani so'ydirmay, ekonom qilib qolish. Ham buqa ekonom bo'lsa, ham yuz ming yonlariga qolsa. Bu kimga yoqmaydi?

E-ha, gap bu yoqda deng. Men bo'lsa boyadan beri tushunmay turibman.

E, uka, sen tushunmaydigan narsalar hali ko'p bu yerda. Shaharlik bo'lib, urf-odatlarimizdan uzoqlashib ketgansan-da. Hechqisi yo'q, uch-to'rt marta shunaqangi to'qqizlarga, to'ylarga borsang ancha pishib qolasan.

Shu mahal ichkaridan Xudoyberdi akaning baland ovozi eshitildi: "Ha, qani, rozi bo'ling endi, tog'asi! Rozi bo'ling! Nima kamchilik bo'lsa, bizdan o'tibdi, o'tinib so'rayman, shu safar kechirib turing endi! Tuzukmi?.." Bunga javoban Ashirmat tog'aning jahldor ovozi yangradi: "Maqsadlaring bizni el-yurt oldida sharmanda qilishmi, a? Yo bizda qasdlaring bormi?" Yana Xudoyberdi akaning Ashirmat tog'ani avrashga urinishi eshitildi: "Mana, yana o'n qo'shdim, jami yuz bo'ldi, Ashirmat tog'a! Rozi bo'ling endi. Qudalaringizam kutib qolishdi. Axir, qudachilik ming yilchilik, deydilar..." Ashirmat tog'aning jerkib berishi: "E, sizlar bilan quda bo'lganimizga ham ming pushaymon yedik. Na tuturiqlaring bor..." Xudoyberdi akaning yalinchoq ovozi: "Rozi bo'ling endi. Hali yana beramiz, katta quda". Ashirmat tog'a ishonqiramay so'rayapti: "Qachon? Aniqmi?" Xudoyberdi akaning ovozi: "Obbo, siz ham endi ikki oyoqni bir etikka tiqmang-da. Beramiz dedikmi, beramiz!" Ashirmat tog'aning po'pisaga to'la ovozi: "Agar to'ygacha qolgan yuzni bermasalaring yomon xapa qilaman lekin". Xudoyberdi aka quyuq va'da berdi: "Beramiz, quda. O'rtada men turibman-ku! Ishonavering!" Ashirmat tog'a yana po'pisa qildi: "Aniq ishondim-a!..."

Nihoyat eshik keng ochildi va yal-yal yashnab turgan Xudoyberdi aka quchog'idagi Ashirmat tog'a mehmonlarga qarab iljaydi:

Xush ko'rdik, mehmonlar.

Assalomu alaykum, quda, mulozamat bilan salom berdi Saydulla aka. Xushvaqt bo'ling.

Assalomu alaykum, dedi Fayzulla.

Ashirmat tog'a aka-uka bilan quchoqlashib ko'rishdi. Keyin ichkariga qarab baqirdi:

Hoy, xizmatdagilar, qaranglar qo'noqlarga.

Shu zahoti hovlidan qumg'on, sochiq ko'targan yigitlar ildam yurib chiqib kelishdi va qo'llari ko'ksilariga qo'yib salom berishgach, erkak mehmonlar qo'lga suv quya boshlashdi.

Ashirmat tog'a yana ichkariga qarab ovoz berdi:

Ayollarga qaranglar!

Shu kalomni kutib turganday, hovlidan uch-to'rtta ayol chiqib keldi. Oldinda kelayotgan ayolning qo'lidagi patnisda turli-tuman konfet-shokoladlar. Ayol patnisdagi shirinliklarni mehmonlar ustidan sochqi qilib sochdi. Shu atrofda yurgan bolakaylar yugurib kelib shosha-pisha shirinliklarni terib olishga kirishishdi.

Xush kelibsizlar, qudalar, dedi ayol qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Assalomu alaykum, qudajonlar, dedi Rahima xola eshilib. Arzimagan sovg'a-salomlarimiz bor edi...

Mezbon ayolning ishorasi bilan ikki-uchta juvon "Damas" yoniga kelishdi va Zamira yanga uzatib turgan bo'g'B-chalarni ko'tarib, ichkariga olib kirib keta boshlashdi.

Bu orada qo'llarini yuvgan uchala erkak va Eldor Ashirmat tog'a boshchiligidagi kattagina qozon qaynayotgan, samovar shaqillab qaynab turgan, chorpojada joy qilingan hovlidan o'tib, ichkari xonaga kirishdi.

Xonada kelinning 50-55 yoshlardagi otasi Amir aka, mahalla oqsoqoli chopon kiygan, oppoq soqoli o'ziga yarashib turgan 65-70 yoshlardagi Hoji bobo o'tirishardi. Mezbonlar o'rinlaridan turdilar va mehmonlar bilan quchoqlashib ko'rishganlaridan so'ng bir-birlarini to'rga o'tkazishga harakat qila-qila, quyuq iltifotlar ila axiyri joylashdilar.

Hoji bobo qo'llarini fotihaga ochdi:

Iloyo omin, ikki yosh baxtli bo'lishsin. Sizlarning topgan-tutganlaringiz yaxshi to'ylarga buyursin. Omin.

Hamma fotiha qildi."Xush ko'rdik... Xushvaqt bo'ling" B-lardan so'ng o'zaro hol-ahvol so'rashib ham chiqildi.

Ashirmat tog'a non sindirdi. Piyolalarga choy quyib uzatdi. Mezbonlar tarafidan mehmonlarga qarata "Olinglar-olinglar" tarzida mulozamatlar bo'ldi.

Andakina kechikib qoldiringizmi, quda? Endi xavotir ola boshlagan edik, dedi Amir aka.

Saydulla aka ukasiga ishora qildi:

Toshkenti azimdan ukam yetib kelishini kutib qoldik-da, quda.

Amir aka Fayzullaga ehtirom bilan murojaat qildi:

Yaxshi yetib keldingizmi, shaharlar tinchmi, quda?

Rahmat, tinch, qo'lini ko'ksiga qo'ydi Fayzulla.

Bir piyola choydan keyin xizmatdagi yigitlar yarim kosadan sho'rva olib kirishdi.

Qani, taomga marhamat, dedi Hoji bobo. Yo'ldan toliqib, ochqab kelgandirsizlar.

Xudoyberdi aka gapni ilib ketdi:

Charchash qayoqda, Hoji bobo. Sizlarni tezroq ko'raylik deb qanot bog'lab uchib keldik...

Hoji bobo mamnun tarzda bosh irg'ab qo'ydi.

Qani, qudalar, dasturxonga qaranglar, deya Ashirmat tog'a ham mulozamat ko'rsatdi.

Bu paytda esa...

* * *

Devoriga turli so'zanalar, palaklar osilgan kattagina xonada qudag'aylarni kutib olgan ayol, kelinning xolasi Vazira boshchiligidagi o'n beshga yaqin ayol o'tirishibdi. O'rta dasturxon yozilgan.

Nimagadir norozi qiyofadagi va o'z noroziligini ko'z-ko'zlashga harakat qilayotgan Vazira xola hol-ahvol so'rashishlar va bir piyola choydan so'ng kuyov tarafdin kelgan bo'g'chalarni birma-bir ochib, ichidagilarni ayollarga ko'rsata boshladi.

Vazira xola barmoqlari uchida bir kiyimlik matoni ushlab namoyish qilarkan, bepisandroq ohangda ma'lum qildi:

"So'nggi qirolicha" deganlari shu bo'ladi, aylanaylar.

Ayollar vag'ir-vug'ir qilib yuborishdi:

Vuy, buncha zo'r!.. Tovlanishini!..

Bunday munosabatdan xursand bo'lib ketgan Rahima xola maqtanishdan o'zini tiyib turolmadi:

Atay o'zim borib bozordan olib keldim-da, qudag'aylar!

Vazira xola bu matoni yoniga qo'yib, keyingi matolarni namoyish qilishga o'tdi.

Pombarqut... Voy! keyingi bir kiyimlik material xuddi qo'lini kuydirganday Vazira xola materialni ko'rpacha ustiga tashlab yubordi. Girbishinmi? Voy savil-ey... Qudag'ay, odamni nomuslarda o'ldirmang! Darrov qaytib oling buni. O'rniga tuzukroq narsa qo'ying.

Voy, qudag'ay, qo'ying, unaqa demang, yaxshilab qarang, bu asl mato, o'zinikini ma'qullashga harakat qilib qoldi Rahima xola.

Metri qancha turishini bilasizmi o'zi? Qarang, yaxshilab qarang.

G'azabdan rangi o'chib ketgan Vazira xola qudag'ayiga chaqchayib qaradi:

Hali biz yaxshi materialni yomonidan ajrata olmaydigan so'qir bo'lib qoldikmi?

Qovun tushirganini anglagan Rahima xola tipirchilab qoldi:

Voy, men unaqa demoqchi emasdim...

Aytadiganingizni aytib bo'ldingiz, keyingi zarbani berdi Vazira xola. Lekin bilib qo'ying, men bu masalada singlimni xafa qildirib qo'ymayman. Siz bu yerdan qari qizni yo yetim-esirni emas, suqsurday qizni kelib qilib olib ketayapsiz. Shuni bilasizmi o'zi?

Voy, qudag'ay... deya yumshoq gap bilan aybini yuvishga urina boshladi Rahima xola.

Ammo Vazira xola uni gapirgani qo'ymay, jerkib berdi:

Qudag'ay demang meni! Gulday kelinchakning qadri shu bo'ldimi? Oling bu "qimat" matohingizni! Shunday deya ayol bir kiyimlik matoni Rahima xolaning oldiga otib yubordi. Bir kuningizga yarab qolar. O'rniga darrov normalniy bir narsa qo'ymasangiz, bo'g'changizni qo'lingizga qaytarib tutqazib yuboraman!

Rahima xolaning ham rangi sal o'chinqiradi, qo'llari titray boshladi.

Lekin qudag'ay... Shu payt uning yonida yonida o'tirgan Zamira yanga singlisining sonidan chimchiladi va labini tishlab, bosh chayqadi. Bu ishorani tushungan Rahima xola darrov o'zgarib, iljayganча yumshoq ohangga o'tdi: Bo'ldi, qudag'ay, bo'ldi.

To'qqizni o'tkazib olaylik, kechiminan ertaga abitgacha bir kiyim toza material bizdan!

Vazira xola mehmonlarga ishonqiramay qaradi.

Ertaga kelib tekshirib ketaman-a... Xo'sh... Navbatdagi bo'g'cha ochildi. Tufllilar... Ie, bor-yo'g'i uch parami? Bu nima degan gap? Nima, sizlar bizni mazax qilayapsizlarmi?

Qudag'ayjon, to'qqiz juft olmoqchiydik, shosha-pisha izoh berishga urindi Rahima xola. Lekin kelinimizga qanday fason yoqishini bilmaganimizdan qolganini to'ydan keyin o'ziga oldirmoqchi bo'ldik. Kuyovingiz aytgan ekan, bu gap kelingayam ma'qul bo'libdi.

Bu gapdan qoniqish hosil qilmagan, eng asosiysi ishonmagan Vazira xola singlisi Xolida xolaga savolomuz qaradi. Xolida xola shosha-pisha bosh irg'adi.

Mayli, deb qo'ydi Vazira xola. Bu nomerlaring o'tdi hisob. Lekin keyin o'zim buniyam tekshirib ko'raman. Agar aldasalaring... Ie, ie... palKjto qani? Kashmiri palKjto qani, qudag'ay?

Bu xitobni eshitgan Zamira yanga singlisi Rahimaga mo'ltirab qaradi, go'yoki "O'zing qutqar!" demoqchi bo'ldi.

Rahima xola yana otni qamchiladi:

Hozir yoz bo'lsa, qudag'ay...

Chuqur nafas olgan Vazira xola gapni pichingdan boshladi:

Nima, bu yil kuz-qish kelmasmishmi?

Keladi, albatta keladi, bidirlab ketdi Rahima xola. Lekin unga dovur modalar o'zgarib ketsa falon so'mlik palKjto shifonerda turib qolmasin deb... Xudo xohlasa, to'y o'tsin, kelinimiz ishlasin, ana undan keyin, qishga yaqin kelin-kuyov qo'ltiqlashib bozorga borib, o'zlariga mosini tanlab olsa yarashadi...

Vazira xola nogoh qaddini rostladi, bo'lg'usi qudalariga adoqsiz nafrat va g'azab bilan qaradi. Avval o'ng qo'lini beliga tiradi, kechin chapini. Shundan keyingina gulduragan ovozda bobillab berdi:

Ho, gulday qizimizni sizlarga ishlash uchun berayapmizmi? Bekorlarning beshtasini yepsizlar! Sizlarga tekin xizmatkor kerak bo'lsa, boshqa yerga boringlar! Nozima ishlamaydi, o'tiradi keng uyning kelini bo'lib! Kerak bo'lsa eri boqadi!

Haliyam, qudag'ay, haliyam, ikkinchi marta qovun tushirganini anglagan Rahima xola rosa o'sal bo'ldi.

Vazira xola singlisi, kelinning onasi Xolidaga savolomuz qaradi. Xolida xola yana bosh irg'ab qo'ydi.

Endi hujumni kuchaytirmoqchi bo'lgan Vazira xola birdan o'zini to'xtatdi va kuyov tarafdin kelgan narsalarni g'azab bilan ko'zdan kechirishda davom etdi. Birdan ayol chinqirib yubordi:

Voy, tilla qani?

Gap nimadalgini anglagan Rahima xola titrab-qaqshab tushuntirishga urindi:

Aytdik-ku, kelinimizni eson-omon uyga oborib olganimizdan keyin...

Endi Vazira xolani to'xtatib qoladigan kuch yo'q edi.

Bas! Bunaqa cho'pchaklaringizni aytishga boshqa ovsarlarni toping! Biz patir ushatilgandayoq aytib qo'yganimiz: buyumlarning ustiga yo tilla zirak, yo tilla sepochka qo'yib kelasizlar deb. Qani? Ko'rmayapman. Yo yana ko'zim xiralashib qoldimi?

Bu boshqa gap... Endi, qudag'ayjon, stenka masalasini gaplashib olsak.

Davrada ayollardan biri Rahima xolaga murojaat qildi:

Rost-da, aylanay. Tilla ko'rinnmayapti-ku. Ana, o'tgan hafta O'roq tegirmonchining qiziga to'qqiz keldi. Bordik. Kuyov tomon to'qqizta korobka ustiga narxi bir yarim million so'mlik sepochka qo'yib kelibdi. Ana uni hurmat desa bo'ladi, ana uni izzat qilish desa bo'ladi.

Sal o'ziga kelib ulgurgan Rahima xola bo'lg'usi qudag'aylarni gap bilan o'xshatib chaqib olish fursati yetdi deb o'yladi shekilli, hozirgina gapirgan ayol tomon engashib, uyida tayyorlab kelgan xabarini to'kib soldi:

Bizning qishloqdayam bittasi kelinining to'qqiziga ikki million so'mlik brilliant ko'zli sirg'a qo'shib bergandi. Keyin nima bo'ldi deng? Bir yilga yetmay ajrashib ketishdi. Xolajon, muhimi ikki yosh baxtli bo'lsin. Tilla topiladi...

Ammo Vazira xola bunaqa mahallari o'z talabida qoyaday qattiq turib oladigan ayollardan edi. Hozir ham hech qanday e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda buyruq berdi:

Marhamat qilib o'sha topiladigan tillani hoziroq manavi bo'g'changiz ustiga qo'ymasangiz, qudag'ayjon, siz bilan xayrlashishimizga to'g'ri keladi. Men hazillashmayapman... E, odamning har narsa bo'lgani yaxshi. Qudalarim indamas bechoralar ekan deb bosib, toptab, yanchib o'tib ketaverasizlarmi? Shumi odamgarchilik? Gap shu: hoziroq tillani qo'ymasangiz ashqol-dashqolingizni ko'tarib qaytib ketaveringlar. Mening ko'chada qolgan jiyanim yo'q! Insof ham kerak-da axir! Tuflini mayli dedik, palkJtogayam ko'ndik. Lekin tilla masalasida bizni ahmoq qila olmaysizlar!

Rahima xola endi rostakamiga yalinishga o'tdi:

Qudag'ay, aytdik-ku...

Bo'ldi, bas, men aytdiganimni aytdim! Boshqa gapning keragi yo'q!

Vazira xolaning to'nini teskari kiyib olganini ko'rgan Rahima xola jovdirab opasiga qaradi. Zamira yanga bir zum esankirab qoldi, so'ng shosha-pisha qulog'idan baldoqli sirg'asini yechib olib, bo'g'cha ustiga qo'ydi.

Toza oltin bu, qudag'ayjon, dedi Zamira yanga tovushi titrab.

Vazira xola sirg'alarni qo'lga olib, diqqat bilan ko'zdan kechirdi. So'ng go'yo probasini ko'rayotganday chiroq tomon yuqori ko'tarib, ichki qismlarini ham tekshirib chiqdi.

Sal chiroyi ochilgan Vazira xolaning yuzida tabassum sharpasi ko'rindi.

Bu boshqa gap... Endi, qudag'ayjon, stenka masalasini gaplashib olsak.

Hayratdan Rahima xolaning og'zi ochilib qoldi:

Stenka?

Davrada o'tirgan boyagi ayol qo'shimcha qildi:

Ha, o'rgilay, hozir hamma joyda stenkanı kuyov taraf olib berayapti...

Bu paytda esa...

* * *

Erkaklar xonasida gurgung qizigan. Goh ob-havo, goh bu yilgi g'alla, goh narx-navo. Ishqilib, gap topiladi-da. Nihoyat kosalar olingandan so'nggina, ho'rillatib choy ichish asnosida joylashibroq yonboshlab olgan Ashirmat tog'a maqsadga o'tdi.

Endi gap bunday. Bilasizlar, qishlog'imiz katta. Ikki ming xo'jalik yashaydi. Har bir xo'jalikdan bir odam kelib-ketsayam shu yerning o'zidan ikki mingta qo'noq naqd degani. Olis-yaqindan keladigan qo'noqlar ham shunga yarasha. Mayli, sizlarni ko'p qiynamaymiz. Qiz vecheriga bir kattaroq, to'rt-besh yashar buqa, ikkita qo'y bersalaring bo'ladi. Shunga yarasha o'n yashik toza aroq, beshta konKjyak, o'nta shampan, beshta vino, suv sizlardan. Artist bilan video o'z-o'zidan kuyov tarafning bo'ynida. Buni aytib ham o'tirmaylik. Xo'sh, non-pishiriqqa deb yana uch-to'rt qop visshiy sort un tashlab ketsalaring... Ana shunda sizlar aytgan ikki haftalik muddatda to'y qilsak bo'ladi. Undayam hali xotinlardan so'rab ko'rish kerak, ularning tikish-bichishlari bitay deb qolganmi yo hali chalami?

Saydulla aka o'tirgan joyida bezovtalanib bir to'lg'anib qo'ydi va Xudoyberdi akaga qaradi. Xudoyberdi aka uzoq muddatli urushga shaylangan jangchiday cho'k tushib o'tirib oldi.

Ayollar tikish-chatishini bitirmagan bo'lsa, ikki hafta ichida bitirishadi, quda. Lekin, quda, bitta qiz vecheriga shuncha dov-dastak ko'plik qilmasmikan?

Kamlik qilsa qiladi, lekin ko'plik qilmaydi. Haliyam sizlarni ayab, ko'p narsa aytib o'tirmadik.

Bu gaplarni eshitib o'tirgan Hoji bobo bezovtalanib yo'talib qo'ydi. Ashirmat tog'a unga savolomuz qaradi:

Bir narsa demoqchimisiz, Hoji bobo?

Demoqchiman. O'tgan hafta machitda qishloqning besh-olti oqsoqoli yig'ilishgandik, deya gap boshladi bir yo'talib olgan Hoji bobo. Shu... to'ylarda tartib o'rnataylik. Axir keyingi paytlari to'y qilayotgan hamqishloqlarimiz juda qiynalib qolib qarzga botishayapti, buning ustiga urish-janjallar sababli to'y egalarning yuzi shuvit bo'lib qolayapti... Ishni "Qizlar majlisi"ni tartib solishdan boshlaylik, degan qarorga kelgandik. O'zi bu yerga shu gapni aytish uchun kelgandim, Amirboy. Hoji bobo nima uchundir o'zini to'y raisi sanab yurgan Ashirmat tog'aga emas, kelinning otasiga qarab gapirardi. Qo'l uchida amal-taqal kun ko'rayotgan xonadon uchun sarf-xarajati kattagina bir to'ydan ham oshib ketguvchi "qiz majlisi"ni o'tkazish oson emas...

Gap qayoqqa qarab ketayotganini sezgan Ashirmat tog'a birdan oraga qo'shildi:

Besh-oltita chol shunaqa visir-visir gap qilib yurganini eshitgandik, Hoji bobo. Lekin, kelib-kelib ishbuzuqilikni bizdan boshlaysiz deb kutmagandim. Bilasiz, har ota-onaning o'z orzu-havasi bo'ladi. Qolaversa, qizning ham.

Hech kim orzu-havasga qarshi emas, Amirjon. Hoji bobo hamon qat'iy o'jarlik bilan kelinning otasiga murojaat qilardi. Albatta, bir parcha etni yedirib-ichirib, kiyintirib, o'qitib, to odam qilguncha ota-onaning bo'lari bo'ladi. Ana endi shu qizning "Men boshqalardan kammanmi?" deya dang'ilama to'y ham qilib berishlarini talab qilib turib olishi insofdanmikin? Endi o'n sakkizga kirgan qiz o'zi mustaqil pul ishlab, bir kattakon to'yga yetarli pul ishlab topdimi? Qayoqda! Deylik, qizingizning ishongani ota-

onasi. Bechora ota-ona kimlarga egilib qarz so'rab boradi, kimlarning qoshida sarg'ayib turadi bu uni qiziqitirmaydi... Amirjon, qiz majlisi deganing bilan stol to'riga kelin-kuyovni o'tqazasan. Shundaymi? Shunday. El qatori. Vaholanki, ertasi kuni kechqurun xuddi qizing endi kuyov tarafdagi to'yda ham xuddi shu libosida dasturxon boshida o'tiradi. Nima, qizing ikki marotaba turmushga chiqadimi?.. Buning ustiga... Musulmonmiz. Axir to'y bo'lib o'tgunga qadar kuyov bo'lmish qaynota-qaynona ko'zidan sal panaroqda yurishi, bo'lg'usi qaynotasi yoki qaynonasi bor joyga qadam bosmasligi joiz. Sizning komsomolcha qiz majlisingizdagi to'kin dasturxonning boshida esa hali nikohdan ham, rasmiy qayddan ham o'tmagan kuyov bemalol bo'lg'usi qaynota-qaynonasi bilan o'tiradi. O'tirish ham gapmi, yeydi-ichadi, o'ynaydi-kuladi! Aroq sipqoradi! Insofdanmi shu, iymondanmi?

Hoji bobo, nima, siz bu yerga pishib turgan oshni to'kib tashlagani, to'yni buzgani kelganmisiz? qahr bilan baqirib yubordi Ashirmat tog'a. Nega o'zingizdan o'zingiz bir narsalar deb valdirab yotibsiz? Yo ukamning boshqalardan kam joyi bormi? Hoji bobo bu safar ham nimagadir Ashirmatga emas, kelinning otasi Amirga murojaat qildi. Go'yo Hoji bobo uchun xonada Ashirmat degan dam yo'qdek edi:

Shuncha xarajat... Ortiqcha chiqim... Pulni osmonga sochish bilan barobar-ku bu... Bizning sizga o'xshaganlarga rahmimiz kelganidan, sizlarga achinganimizdan bunaqangi to'ylarga bormaslikka qaror qildik, Amirboy... Qudangiz o'zingizga o'xshagan traktorchi ekanlar... Mayli, agar juda oshib-toshib ketayotgan ekansiz, yosh kelin-kuyovni sayohatga jo'nating, o'qiting, ularga uy olib bering, tadbirkorlik qilishlari uchun sharoit yaratib bering... Axir qizingiz Turkiston yoinki Issiqko'l uyoqda tursin, Buxoro yoki Xivani ko'rmagani chin-ku! Dunyo ko'rishsin farzandlarimiz! O'qishsin farzandlarimiz! Ota-onasining bo'ynidagi otning kallasiday qarzni o'ylab, ezilib yurishmasin farzandlarimiz...

E, namuncha "qarz-qarz"lab qoldingiz, Hoji bobo?! Yomon achchig'i chiqqan Ashirmat tog'aning yuzi qip-qizarib ketdi. Mening ukam o'ladigan joyda emas! To'g'rimi, uka?

Amir aka bir Hoji boboga, bir akasiga ikkilanib qararkan, noaniqroq tarzda g'o'ldiradi:

To'g'riku-ya... Qizimizning ham o'z orzu-havasi bor... Dugonalarining qiz majlislariga borgan, ko'rgan... Mendan xafa bo'lib qolmasmikan...

To'y bizniki, Hoji bobo, sizniki emas! Sog' ko'zi chaqchayib ketgan Ashirmat tog'a yana qattiq-qattiq gapirishga o'tdi. Agar to'yimiz el qatori o'tmas ekan, qishloqqa o't qo'yaman! Nima, boshqalardan kam joyimiz bormi? Cho'loqmizmi, invalidmizmi? Yo aybimiz mening bitta ko'zimning yo'qligimi? Xudoga shukr, kal bo'lsak ham ko'nglimiz nozik. Kambag'al bo'lsak ham o'zimga yarasha orzu-havasimiz bor! Birovlar kelib-kelib bizning to'yimiga burunlarini tiqib yurishdan avval o'zlarining qizlarini, nevaralarini o'ylasin! Bizning og'irligimiz birovlariga tushmay qo'ya qolsin! Qiyalib qolsak, qarindosh-urug'larimiz bor. Xudoga shukr, vaqtida bariga el qatori to'yonasini berib, o'tkazib qo'yganmiz. Oladigan to'yonamizning o'zigayam ikkita dang'illama to'y qilishga qurbimiz yetadi!.. Qilamizam! Ka-atta to'y qilamiz! Artistning ham ka-attasidan opkeltiramiz! Opkelmay ham ko'rishsin-chi! Ko'rolmaganlarni kuydirib bo'lsayam ka-atta to'y qilamiz!.. O'zi kambag'alga kun yo'q ekan, Hoji bobo. Nima, Hakim fermer bilan Suvon benzin oldindan siz chollarning og'izlaringizni moylab qo'ygan-da, qiz vecherini qanday xohlasa, shunday o'tkazsayam miq etmagandilaringiz...

Bundan yuz yil burun Behbudiy "bizni inqirozga va tahlukaga va jahannamga yumalatato'rg'on to'y, azo ismidagi ikki qattol dushman" deb aytgan, inim, deya nasihatimiz ohangda uzoqdan gap boshladi Hoji bobo. Ellik yil burun Abdulla Qahhor... Ammo Ashirmat tog'a uni gapirgani qo'ymadi.

Menga qarang, Hoji bobo, mening aniq bir savolimga aniq javob bering: shu Behbudlaringizu anavi, nima edi, Abdullamidi, o'shalarining, nima, eldan ajralib, boshqacha to'y qilishganmi? Bilmasiz-a? Siz bilmasangiz, men aniq bilaman: qilishmagan! El qatori qilishgan! Eldan ajralib qolmagan! Bu shunchaki og'izdagi gap, siyosat. Aniq!

Hoji bobo Ashirmat tog'aning ko'zlariga tik boqdi:

Qilishgan! Shuning uchun ham ularning nomlari Behbudiy, Abdulla Qahhor bo'lib tarixda qolgan.

Ashirmat tog'a bo'sh kelmadi:

Men uchun, Hoji bobo, tarixda nomim qolganidan ko'ra qishloqda boshimni ko'tarib yurish avloroq.

Ha, nodon-a, Hoji bobo afsus bilan bosh chayqadi. Mayli, ulug'larni qo'yib turaylik. Lekin men qildim-ku shunday to'yni.

O'g'limni uylantirganimda stolga aroq qo'ymadim-ku!

Ashirmat tog'a nogahon qah-qah otib kulib yubordi.

E, gapirmang, Hoji bobo, gapirmang! U to'y bo'lmadi. Odamlar aniq noilojlikdan o'lik chiqqan uyday muzlab yotgan uyingizga o'lganlarining kunlaridan bir kirib-chiqishdi, xolos. Shundayam hojiligingiz hurmatiga.

Ma'yus tortib qolgan Hoji bobo bosh egdi. So'ng yana baribir Amir akaga tik qarab, asta shivirladi:

Men sizga yaxshi bo'lsin degandim, Amirboy...

Ashirmat tog'a qahr bilan bo'kirib yubordi:

E, birovning g'amini yegandan ko'ra, ammo-lekin Hoji bova...

Bu ochiqdan-ochiq haqorat edi. Hoji bobo hansirab nafas olganicha, g'azab bilan Ashirmatga qaradi:

E, to'yning ham boshingdan qolsin!.. Ketdim-e! Echki go'shting sovuqligimni oshirib yubordi!

Shunday deya Hoji bobo o'rnidan uchib turdi va shosha-pisha xonadan chiqib ketdi. Amir aka uning ortidan intildi, ammo

Ashirmat tog'a bir g'azabli boqishda uni joyiga o'tqazib qo'ydi.

Ketsa ketaversin! Og'zidan tupuk sachratib gapirdi Ashirmat tog'a. O'zi kelgan yor-yor, o'zi ketgan yor-yor! Bu yerda aniq unga hech kimning ko'zi uchib turgani yo'q edi. Buning ustiga chaqirilmagan joyga faqat ahmoq odam keladi. Yana bu kishim hojimishlar! Nastroeniyaning tuzishdan boqasiga yaramaydi! Ichi qora-da, ichi qora! O'zi maktabdayam "tarix, tarix" deyaverib hammamizning miyangxato qilib qilib tashlagandi. Pensiyaga chiqqanidan keyin qutulamizmi desak, mana, endi Hoji bobo bo'lib olib karillagani-karillagan. Bemahal qichqirgan xo'roz!.. Bo'ldi. Gap tamom! Aniq ishga o'tamiz! Demak, gap bunday. O'sha gapim gap! Aytganimizni qilsalaring to'y bo'ladi, bo'lmasa, ana, katta ko'cha!..

Erkaklar muzokarasi bir soatdan ortiqroq davom etdi. Ashirmat tog'a baribir aytganida turib oldi. Kuyov tarafdan kelganlar qiyinchilik bilan bo'lsa ham asta-sekin yon bera boshlashdi. Ashirmat tog'a oldindan berib qo'ygan ro'yxatiga yana nimalarnidir qo'shsa qo'shdiki, aslo kamaytirmadi. Axiyri bir bitimga kelingach, mehmonlarga javob berildi.

"Damas" yoniga chiqqanlari mahal Fayzulla bukchayib turgan akasiga achinib qaradi. Bu paytda Xudoyberdi aka yuk mashinasining ortga qayrilib olishiga yo'l ko'rsatayotgandi.

Dahshat-ku bu, aka. Bu gap beixtiyor Fayzullaning og'zidan chiqib ketdi. Bunaqada Ergash Karimovga o'xshab jinni bo'lib qolish hech gap emas.

Saydulla aka bu gapga javoban kulimsirab qo'ydi:

Bitta "qiz vecher"ga jinni bo'lib qolsang... Aytdim-ku, shaharliksan, po'koningdan yel o'tmagan deb. Shu paytgacha ota o'rniga ota bo'lib bunaqangi rasm-rusumlarga seni aralashitirmay yurgandim-da, Mana endi vaqti keldi. To'y ko'pchilik bilan. Ko'rib turibsan, ikki yuz minglar urvoq ham bo'lmaydi.

Fayzulla qizarib ketdi:

Tushundim, aka. Men harakat qilaman. Lekin, bilasiz, biz oylikka yashaymiz...

Bizda o'sha oylik ham yo'q, istehzoli iljaydi Saydulla aka. Haliyam mol bor, shu bizni boqadi. Traktorimniyam sotib yubordim. Yo'g'-e?

Besh yarim millionga ketdi, dedi Saydulla aka faxr bilan. O'ziyam bittalab terib chiqqandim-da. Uchib ketardi o'ziyam.

Xudoyberdining duldulidan o'tsa o'tardiki, qolishmasdi.

Shunday deya Saydulla aka "Moskvich"ga ishora qildi.

Saydulla aka bosh chayqadi:

Kamida yana shuncha kerak, uka... Sen hali nonni "nanna" deb yuribsan-da. Xullas, bir-bir yarim million demayman, besh yuz mingcha berib tur. Qarzga. Yaxshi kunlaringda qaytaraman.

Xo'p... xo'p... deya oldi bunaqa bo'lishini kutmagan Fayzulla.

Sexingda ortiqcha stanok-ptanok yo'qmi, olib chiqib sotib yubor. Ana pul!

Fayzulla cho'chib ketdi:

Yo'g'-e, buning sira iloji yo'q!

Qo'rqma, dedi Saydulla aka. Aytdim-qo'ydim-da... Xayriyat, ayollarga ham javob tegganga o'xshaydi.

Darhaqiqat, keng ochilgan darvoza yonida ayollar qurshovida chiqib kelayotgan Zamira yanga bilan Rahima xola ko'rinishdi.

Saydulla aka kaftlarini bir-biriga ishqadi.

Sen ayollarni olib to'g'ri uyga haydayver. Orqangdan yetib boramiz.

Zamira yanga bilan Rahima xola mezbon ayollar bilan quyuq, qudag'aylari Vazira xola, Xolida xolalar bilan quchoqlashib, o'pishib xayrlashishdi. Ayollar og'zidan biri-ikkiinchidan shirin eshitilayotgan "Boringlar-a... Yaxshi yetib boringlar... Sog'intirib qo'ymasdan tez-tez kelib turinglar... Kuyovimizga salom aytib qo'ying" qabilidagi xitoblar yangrardi. Shundan so'ng Zamira yanga bilan Rahima xola "Damas"ga chiqishdi. Fayzulla qo'lini ko'ksiga qo'ygan ko'yi ayollar bilan xayrlashib, eshikni yopdi.

Mashina motori o't olgan zahoti Rahima xola g'azab bilan vishilladi:

Qizlaringni olib boray, ana undan keyin mendan ko'radiganini ko'radi! Bir alamimdan chiqay, bir alamimdan chiqay! Ermakka yig'lataman!..

Zamira yanga singlisiga qarab lab tishladi, bosh chayqab qo'ydi. Mashina quyuq chang ko'tarib oldinga yurdi.

* * *

Fayzulla tuman markazidan bo'lg'usi kuyov yigit, yigirma yoshlardagi Mardon bilan "Damas"ga bir amallab ikki toy paxta ortib keldi. Yukni tushirib, hovliga olib kirishdi. Shundan keyin kiyimlariga yopishgan paxtalarni terib olayotgan Fayzulla chekkaroqqa o'tib, oftobada qo'llarini yuvgach, akasining yoniga bordi.

Aka, endi men qaytsam. Ertaga ish. Aytgandim-ku, o'ning oxiri. Menga nima xizmat bo'lsa bemalol aytaverasiz, to'ydan bir-ikki kun oldin kelib, xizmatda bo'laman.

Saydulla aka bir muddat mulohaza yuritganday lablarini sassiz qimirlatib turdi. So'ng maqsadga ko'chdi:

Xizmat degin... Uka, menga qara. Traktorniyam pullab yubordim. To'y oldidan mingta tashvish. Baribir bir transport kerak bo'ladi. Shunga to'y o'tgancha mashinangni tashlab ketsang. Nima deysan? O'zim avaylab minib turardim.

Uzoqroq o'ylanib qolsa akasi xafa bo'lishini anglagan Fayzulla darhol rozi bo'ldi:

Xo'p bo'ladi, aka.

Saydulla aka mamnun kulimsiradi:

Unday bo'lsa, tez kiyinib chiq. Seni raysentrga oborib qo'yaman. To'g'ri Toshkentga qatnaydigan marshrutkalar bor. Yo'l-yo'lakay Safar akanikiga ham kirib o'tamiz. Kecha oqshom bechoraning xotini qazo qilib qolibdi. Bugun chiqarishgan.

Fayzulla yuziga fotiha tortarkan, ismi aytilgan odamni ko'z oldiga keltirishga urindi, ammo buni uddalay olmadi.

Qaysi Safar aka?

E, sening esingdan ham chiqib ketgan bo'lsang kerak. Ona tomondan uzoqroq qarindoshimiz bo'ladi. Ko'p yil katta-kichik amallarga ilashib yurdi. Uch yildan beri selKjxoztexnikada zam. Traktorni xususiyashtirib olishimga yordami teggandi. Fotiha qilib chiqsak, keyin choyga chaqirishimga ham oson bo'ladi.

Choyga? hayratlanib so'radi Fayzulla. Agar esimdan chiqmagan bo'lsa, bir paytlar armiyadan kelganlar choyga chaqirilardi.

Saydulla aka ukasiga achinib qaradi:

El-yurtga qo'shilmaganingdan keyin shu-da. Axir Safar akaning xotini o'ldi, shundaymi?

Xo'sh, xo'sh? Fayzulla o'ziga shu paytgacha noma'lum zo'r bir yangilik eshitadiganday akasiga diqqat va kamoli ehtirom bilan qaradi.

Men bo'lsa to'y qilayapman. Shundaymi? Saydulla aka yana ham salmoqlanib gapira boshladi.

Xo'sh, xo'sh?

Xo'sh-xo'shlaymay tur. Men senga sigirmanmi... Xullas, men Safar akani ham to'yga chaqirishim kerak. Shundaymi?

Shunday.

U kishi azali-ku. Demak bizning to'yga kelishi oldidan u kishini choyga chaqirib, bir qo'y so'yishim kerak. Keyin shunday-shunday, to'y qilayapman, deyman. Ana undan keyin Safar aka to'yga kelaveradi.

Baribir hech narsani tushunmagan Fayzulla hayron bo'lib qoldi:

Nega?

Axir men u kishini choyga chaqirib, qo'y so'ydim, ovqat qildim, hijjalab tushuntirishga o'tdi Saydulla aka.

Fayzulla yelka qisdi:

Agar... qo'y-po'y so'yib, chaqirib o'tirmasdan, to'g'ri borib to'yga chaqiraversangiz-chi?

Bu o'taketgan odobsizlik bo'ladi, deya keskin bosh chayqadi Saydulla aka. Avval choyga chaqiraman, keyin to'yga.

Fayzulla nimalarnidir mulohaza qilgan ko'yi bir muddat o'ylanib turib qoldi, keyin tilga kirdi:

Safar aka deganlarining qarindosh-urug'lari ko'pdir?

Ha, ko'p. O'zimizning urug'dan-da. Buning ustiga kichkina bo'lsayam amali bor.

Unda biron yigirma-o'ttiz kishi choyga chaqirar u kishini.

Bemalol kamida ellik deyaver.

Demak, Fayzulla akasiga ajablanib qaradi, Safar aka kamida ellik kun mehmondorchilikka borib, qo'y yeb kelarkan-da.

Saydulla yosh bolaga aql o'rtagayotganday ohangda ukasiga gap uqtirishga tushdi:

Mehmondorchilik emas bu, choyga chaqirish, dedim-ku.

Fayzulla bo'sh kelmadi:

Buning farqi bormi?

Bor.

Qanaqa?

Hm... mehmondorchilikda anavi bo'yni yo'g'ondan qo'yiladi, choyga chaqirishda esa yo'q.

Katta farqi bor ekan, deya Fayzulla kulib yubordi. Mayli, men tez chiqaman.

Saydulla shoshib uyga kirib ketayotgan ukasining ortidan achinish bilan qarab qolarkan, afsuslanganday bosh chayqadi:

Shunaqangi oddiy narsalarniyam bilmaysan-a, uka...

* * *

Safar akaning uyida tuman markazida ekan. Ikki qavatli, dabdaba bilan qurilgan hovli boshqa uylar orasida ajralib turardi.

Kun juda issiq bo'lishiga qaramasdan kattagina hovliga palatkalar o'rnatilibdi. Hovlining naqshinkor darvozasi yonida basavlat, galstuk taqqan Safar aka boshchiligidagi bir guruh chapon kiygan erkaklar ta'ziyaga keluvchilarni qarshi olishayapti.

"Damas"ni chekkaroqqa, kun tig'iga qo'ygan Saydulla aka ta'ziyani qabul qilayotganlar yoniga Fayzullani boshlab keldi va Safar aka bilan quchoqlashib ko'rishdi. Fayzulla ham shunday qilarkan, "Bandalik" deb qo'ydi. Aka-uka azadorlar qarshisidagi o'rindiqa o'tirishdi. Mulla Qur'ondan sura o'qidi.

Fotihadan keyin aka-ukani jizg'inagi chiqib yotgan palatka ichiga taklif qilishdi. Palatka ichidagi katta joyga ikki qator qilib ko'rpachalar to'shalgan. O'rtada to'kin dasturxon: meva-cheva, qand-qurs, tarvuz-qovun.

Aka-uka issiqda terlab-pishib ovqatlanayotgan odamlar yoniga borib o'tirishdi. Saydulla aka yoniga keltirib qo'yilgan choynakdagi choyni qaytarib, ukasiga bir piyola choy uzatdi. Darhol katta-katta kosalarda sergo'sht sho'rva olib kelishdi. Yuzidan yog'ilayotgan terni artayotgan Fayzulla yuzasida yog'i suzib yurgan ovqatga qarab qoldi.

Ovqatni qoldirmay yeb qo'yish kerak, uka, dedi Saydulla aka nasihat ohangida. Savob bo'ladi.

Shunday issiqda... chaynalib qoldi Fayzulla. Qo'y go'shti davleniyani ko'tarib yuboradi.

O'zi ertalab kelsak bo'larkan, dedi allaqachon ovqat tanovul qilishga kirishgan Saydulla aka. Safar aka har bir kelgan odamga uch mingdan tarqatibdi. Chollarga puldan tashqari belbog', kalish beribdi.

Fayzulla battar hayron bo'ldi:

Pul tarqatish ham rasm-rusumlarimizga kiradimi?

Albatta, oddiy haqiqatni gapirayotganday pinak buzmay javob qaytardi Saydulla aka. Odamlar xursand bo'ladi, o'lganning haqiga duo qiladi. O'tgan oy otasi o'lib qolganida Abbos zapravkachi kelganlarning har biriga besh mingdan tarqatgan. Buyam kam ko'ringanmi, kelganlarga tobut ko'tarilmasdan burun ovqat bergan.

O'zi yanga nimadan vafot etibdi, qiziqsindi Fayzulla. Kasalmidi?

Yo'q, soppa-sog' edi. Uxlaganu uyg'onmagan deyishayapti. Shunday issiqda...

Fayzulla bir qoshiq yog'li sho'rvani og'ziga olgan mahali bu gapni eshitib qalqib ketdi.

Yurakmikan?

Kim biladi deysan? Lekin Safar akaning chiroyli xotinlarga suyagi yo'qligiyam bor gap. Biron tasi kelib to'polon qilgan bo'lishiyam mumkin. Lekin o'lganga qiyin, tirik qolgan kunini ko'raveradi...

Shosha-pisha qoshiqni dasturxonga tashlagan Fayzulla seskanib atrofga alangladi. Terlab-pishib ovqat yeyayotgan odamlar. To'y dasturxonini kabi bezatilgan dasturxon. Fayzulla sal engashib tashqariga qaradi. Yuzi yog'dan yiltirab ketgan Safar aka navbatdagi ta'ziyaga kelgan odam bilan quchoqlashar ekan, bilinar-bilinmas esnab qo'ydi... Buni ko'rgan Fayzulla uchib o'rnidan turib ketdi.

Nima bo'ldi, uka? hayron bo'lib so'radi Saydulla aka.

Fayzulla arang gapira oldi:

Men tashqarida bo'laman.

Yo'lga chiqasan-ku, uka, qorningni to'qlab ol.

Ammo Fayzulla akasining gapini eshitmaganday shosha-pisha tashqariga chiqib ketdi. Saydulla aka ukasining ortidan bosh chayqab qoldi:

Odamgarchilik yo'q sen bolada, odamgarchilik...

Oshig'ich tarzda mashinasi yoniga borgan Fayzulla esa bir amallab "Damas" ortiga o'tdi-yu, shu zahoti o'qchib yubordi...

* * *

Hash-pash deguncha oradan ikki hafta o'tib, to'y kuni ham yaqinlashib qoldi. Odmigina bezatilgan uch xonali uyning oshxonasida ushbu masala oila a'zolari tomonidan ko'tarinki kayfiyatda muhokama qilindi. Ammo undan oldin nogironlar aravachasida o'tirgan Habiba to'satdan ko'rpachasi tagidan olgan qalingina bir gazetadagi she'rni ifodali o'qishga tushib ketdi:

... Va garchand nekbinlik yo'ldoshim beshak,

Ba'zan bir savolga yo'ldoshdir tunim:

Meni kutayotir qanday kelajak,

Qandayin kechajak ertangi kunim.

She'r muallifi Azimjon Fayzulla o'g'li, deya tantanali tarzda e'lon qildi Habiba uyalinqirab turgan, yuzi qip-qizil tus olgan akasiga ishora qilarkan. Shaxsan o'zlari.

Hayajonlanib ketgan Dilnoza qarsak chalib yubordi. Unga shodon Fayzulla qo'shildi.

Qani, asalim, menga ber-chi. Fayzulla gazetani qo'liga oldi, qizi barmog'i bilan ko'rsatib turgan ism-familiyani hijjalab o'qidi. "A-zim-jon Fay-zul-la o'g'li". G'urur bilan takrorladi: "Fayzulla o'g'li..." Yashavor, ota o'g'il! O'g'lini quchoqlab olgan Fayzulla xotiniga qarab jilmaydi: Olma o'z daraxtidan uzoqqa ham to'kilarkan-da. Injener bilan matematika o'qituvchisining bolasi ham shoir bo'larkan.

Avval sal boshqacha gapirgandilar shekilli, kulimsiradi Dilnoza.

Azim o'ng'aysizlandi:

Ada, bu mashq, xolos.

Kamtarlik qilma, bolam, dedi Dilnoza. Oddiy mashq bo'lsa gazetada bosisharmidi, yana ism-familiyangni katta-katta qilib, qop-qora harflarda yozib qo'yisharmidi, bolam!

O'g'lim, bunaqangi mashqlardan yana bormi? qiziqdi Fayzulla.

Azim battar xijolat chekib, gapirolmay qoldi.

Habiba bilag'onlik qildi:

Adajon, oyijon, akam o'z xonalariga qamalib olib, sakkizta obshiy daftarni she'rga to'ldirib tashlaganlar.

Azim jon holatda singlisiga po'pisa qilib, mushtini do'laytirdi:

Habiy!

Habiba qiqirlab kulib yubordi:

Ularning ichida sevgi haqida yozilganlari ham bor.

Voy qaqaqon-ey, kuldi Dilnoza ham. Siz bularni qaerdan bilasiz?

Barini bitta qoldirmay o'qib chiqqanimdan keyin bilaman-da, oyijon, maqtandi Habiba. Agar istasangiz o'g'lingizning muhabbat haqida yozganlaridan bittasini yoddan o'qib beraman. Bir o'qishda yodlab olganman.

Azim tipirchilab qoldi:

Habiy deyaqman!

Bunga sayin Habiba battar piqirlab kuladi. Lavlagisi chiqib ketgan Azim stol ortidan unga musht o'qtaldi.

Ada, Azim adasining qo'lidagi gazetani olib qo'ydi, boshqa gaplardan gaplashaylik.

Mayli, o'g'lim. Ammo-lekin bugun bizni juda xursand qilding-da. Chin gap, boshim osmonga yetdi. Axir menga o'xshagan odamni bir yil bir xonaga qamab qo'ysang ham ikki qator she'r yozolmasligi aniq.

She'r yozish xudo bergan iste'dod, o'g'lim, erining gapini davom ettirdi Dilnoza. Bu bilan faxrlanishing kerak.

Azim onasiga yolvorib qaradi:

Oyijon...

Dilnoza kulib qo'ydi:

Xo'p, xo'p.

Aytganday, o'g'ilttoy, ana sizga boshqa mavzu, deya Fayzulla xotiniga murojaat qildi: Shunday qilib, to'y masalasi nima bo'ldi?

Dilnozaning yuzi birdan jiddiy tus oldi.

Uydan ikki yuzcha chiqadiganga o'xshab turibdi. Lekin shundan keyin o'n-o'n besh kun qozonni suvga solib qo'yadiganga o'xshab turibmiz

Yaxshi, xayolida nimalarnidir xomcho't qilib ko'rди Fayzulla. Demak uch yuz qarz olib turamiz. Otpuska pulini olsam, qutulib ketamiz. Bahonada akamning xursand bo'lgani qoladi. To'yona qarzday gap-da, xotin aka. To'qqiz-o'n yildan keyin Azimtoy ham uylanaman deb qolsa...

To'qqiz-o'n yildan keyin emish, noroziligini bildirishga shoshdi Dilnoza. Yolg'iz o'g'il bo'lsa. InsB-titutga kirgan yili uylantirib qo'yamiz.

To'y biz o'ylaganday oson ish emas ekan, xotin aka, xo'rsindi Fayzulla. Eh-he... Azim avval o'qisin, bitirsin, ishlasin, oyoqqa tursin...

Pensiyaga chiqsin! kinoya qildi Dilnoza.

Mayli, bu masalani keyingi oilaviy kengashda muhokama qilamiz. Hozir oshig'ich turgan masalaga o'tamiz. Demak, shanba kuni ertalab Azimjon ikkovimiz yo'lga tushamiz.

Ishqilib, ehtiyot bo'ling-da, dadasi, dedi Dilnoza shosha-pisha. Azimjon bunaqangi shovqinli tadbirlarga aralashib yurmagan.

Qachondir boshlashi ham kerak-ku. O'zingning aytishingga qaraganda, er yetib qolgan bo'lsa. Qishloq to'ylarini ko'rsin, qarindosh-urug'lar bilan tanishsin. Men ham shunday shoir o'g'lim borligidan faxrlanib, uni hammaga ko'z-ko'zlay.

Dilnoza o'g'liga xavotirlanib qaradi:

Ko'z tegib qoladi. Yaxshisi tumor taqib qo'yaman.

Taq. Bitta bo'lmasa, ikkita taq! dedi Fayzulla.

Lekin baribir doim yoningizda bo'lsin. O'zinB-gizdan uzoqlashtirmang.

Xo'p, xonim, xo'p, Fayzulla qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Iloji bo'lsa yo'rgaklab, yelkamga ortmoqlab olaman.

Habiba chapak chalib yubordi:

Vuy, men ham jon deb borgan bo'lardim qishB-loqqa.

Qizining gapini eshitgan, ko'zlari g'iltillab ketgan Dilnoza noqulay ahvolda qolganini bidirmaslikka urinib, o'g'liga qaradi:

Azimjon, bolam, o'zi qishloqqa nimaga borayotganingni bilasanmi?

Albatta, oyijon, o'ktam javob qaytardi Azim. Shanba kuni qizlar majlisi, yakshanba kuni Mardon akamning nikoh to'yi.

Gaplaring ancha silliqlashib qolibdi, jilmaydi Dilnoza. Dadang necha kundan beri "qiz vecher" deb boshimni qotirib yotgandi. Sen adabiy qilib "qizlar majlisi" deding. O'zi "qizlar majlisi" nima ekanligini bilasanmi?

Albatta, oyijon. Hozir, bir daqiqaga. Azim shoshib kirib, darsxonadagi stoli ustidan bir qalin kitob olib chiqdi. Mana, qaranglar, adajon, oyijon, "O'tkan kunlar"da "Qizlar majlisi" degan alohida bob bor. Azim ko'zoynagini to'g'rilab olgach, ifodali o'qiy boshladi: "Qizlar majlisi gullar, lolalar, to'tilar, qumrilar majlisi! Bu uyda Kumushbibi tog'asining uyida qizlar majlisi, gullar majlisi!.. Bu uyga o'ttuz-qirq chamaliq qizlar yig'ilganlar, yig'ilishdan maqsad: qizlar o'zlarining eng latif, eng go'zal bir a'zolarini bukun xotinliq olamiga uzatmoqchidirlar. Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o'tkazmak uchun barcha qizlar o'zlarining eng asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqulodda yasanib, husn olamini yana bir qayta bejabdirlar... Majlisning shoiralari, o'yinchilari, childirma va dutorchilari barchasi ham hozir..."

Azim jim bo'lib qoldi. Yoqimli xotiralar og'ushida qolgan Dilnoza shirin jilmaydi.

Xuddi shunday... Uyda qiz majlisiga o'tkazishga uyalib, tog'amnikida o'tkazgandik. Dadasi, yodingizdami?

U kunlarni unutib bo'larmidi, og'zining tanobi qochib javob qaytardi Fayzulla. Aniq esimda qolgani shuki, qiz majlisi kimning uyida bo'layotgani haqidagi ma'lumot ham mutlaqo maxfiy hisoblanardi. Shuning uchun adresni aniqlayman deb bekorga uch soat o'vora bo'lganim qolgan. Unga dovur majlis tugab ketibdi... Lekin, xotin aka, zamon o'zgarib ketibdi. Endi "qiz vecher"lar boshqacha o'tadigan bo'libdi.

Qanday o'tarkan?

Buni... kelgandan keyin Azimjon bilan ikkalamiz to'lib-toshib aytib beramiz. Yo bo'lmasa o'g'ling yozib beradi-qo'yadi.

Habiba oraga qo'shildi:

Menga ko'rganlaringizni she'r qilib yozib berasiz, a, aka?

Azim singlisining ovozi o'chirib turish uchunmi, darhol rozi bo'ldi:

Yozib beraman, Habi, yozib beraman.

Azim kitobni xonasiga olib kirib ketdi. Habiba quvonib chapak chaldi. So'ng o'z-o'ziga gapirganday dedi:

Oppoq kiyingan kelinchak maza qilib raqsga tushsa kerak, a?..

Fayzulla yalt etib xotiniga qaradi, ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan Dilnoza shosha-pisha engashib, piyolaga choy quya boshladi.

Shukr qil, ayasi, shukr qil. Fayzulla gazetani qo'lga olib, o'g'lining ismi yozilgan sahifani mehr bilan siladi. Shu kunlarga yetkazganiga shukr. Hali Azimjonimiz shunday yigit bo'lsinki, shunday yigit bo'lsinki...

* * *

Namozshom mahali. Tomi qizil shiferli, atrofi paxsa devor bilan o'ralgan uy hovlisida odam gavjum. Ertaga to'y! Bugun esa kelin tarafdagi "qiz majlisi".

O'rtacha kattalikdagi, ikkita chorpoya qo'yilgan hovlida o'ndan ortiq kishi yelib-yugurib xizmat qilayapti. To'y raisi 65-70

yoshlardagi mahalla oqsoqoli Xalil aka mezbonlarga ham, xizmatdagi yosh-yalang, qiz-juvonlarga ham ko'rsatma berib charchamaydi. Azim ham oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib chopib yuribdi. Besh-oltita yigit hovli darvozasi yonida turgan telejkadan temir oyoqli stol va o'rindiqlarni tashiyapti.

Xalil akaning ovozi shuncha shovqinni bosib yangroq eshitiladi:

Sabzini chorpoyaga olib kelinglar... Hoy, sen bola, o'tinni ko'proq g'amlama. Samovarga qara, samovarga... Kelin, artilmagan tovoq qolmasin. Hoy bola, ko'zingga qara!..

Hovli o'rtasidagi chorpoyada Xudoyberdi aka, Saydulla aka, Fayzulla yonboshlab o'tirishibdi. O'rtada dasturxon. Yarmi ichilgan aroq shishasi. Xudoyberdi aka bilan Saydulla akaning ozgina kayfi borligi sezilganday bo'layapti.

Xudoyberdi aka Xalil akaga ishora qilib gapirdi:

Oqsoqol malades. Bunaqa ishlarni ko'zini yumib turib bajartirib tashlaydi.

O'rgan, ustudent, o'rgan, deb qoldi Saydulla aka ukasiga qarab. Bilib qo'y, uka, agar sen bitib ketgan millioner, milliarder bo'lsang ham bir o'zing to'y qilolmaysan.

To'ppa-to'g'ri, aka, dedi Fayzulla ixlos bilan. To'y qarindosh-urug'larsiz, do'st-birodarlarsiz o'tmaydi.

Xudoyberdi aka qiyqirib kulib yubordi:

To'yonasiz ham! Tuzukmi?

Saydulla aka esa o'rtog'ining qochirimini eshitmaganday ukasiga nasihat qilishda davom etdi:

Shuning uchun hech qachon oqibatni unutma. Tagingda mashinang bo'lsa. Qishloqda to'yimi, ma'rakami, eshitgan zahoting aytilgan vaqtga yetib kelishing kerak.

Fayzulla qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

Xo'p, aka, xo'p... Endi men tursam, xizmat-pizmat bo'lsa biroz qarashsam.

E, uka, xizmat yoshlardan ortmaydi, deya beparvo qo'l siltab qo'ydi Xudoyberdi aka. Bizu sizga o'xshagan yoshi ulug'lar shunday yonboshlab yotib, ko'rsatma berib tursak bas... Gap kelganda otangni ayama deyilar, Fayzullaboy. Tuzukmi? Biz ham endi uch-to'rt ko'ylakni ortiq yirtgan aka sifatida sizga bir nasihat qilib qo'ysak.

Bemalol, aka.

Hech qachon chaqirilmagan joyga bormang, lekin chaqirilgan joydan ham qolmang. Tuzukmi? Vaholanki, siz chaqirilgan joylarga ham kelmayapsiz. Holbuki, hammamiz bir qishloqning odamimiz, bir-birimizga qon-qarindoshmiz. To'y-ma'rakamiz, yaxshi-yomon kunlarimiz hammasi birga. Erta-bir kun tobutkashingiz ham shu qishloqdoshlaringiz bo'ladi.

Gaplaringiz to'g'ri, Xudoyberdi aka, samimiy ohangda gapirdi Fayzulla. Men qishloqdoshlarimni juda hurmat qilaman, ular uchun qo'limdan keladigan nima xizmat bo'lsa ayting, bajonidil bajaraman. Ammo har hafta-o'n kunda kelib uyma-uy yurishga vaqt yo'q ish ko'p.

E, uka, bizgacha ishlashgan, biz ishlaymiz, bizdan keyin ham ishlashadi. Tuzukmi? Qo'ng'izga arpa bahona deganlari shu-da! shu gapdan keyin Xudoyberdi aka pix-pixlab kuldi va aroq to'la piyolasini ko'tarib Saydulla akaga murojaat qildi: Qani, jo'ra, ketdik. Ikkovlon ichib yuborishdi.

Lekin, uka, bu safar sendan xursandman, dedi yoshlangan ko'zlarini artayotgan Saydulla aka.

Besh yuz kayfiyatingni ko'tarib yuborgandir-da, jo'ra, askiya qilgan bo'ldi Xudoyberdi aka.

Yo'q, gap pulda emas, jo'ra. Gap ukamning o'g'lini to'yimga olib kelganida. Qara, Saydulla aka hovlida besh-oltita lagan ko'tarib ketayotgan Azimga ishora qiladi, bolasi kirishimligina ekan, yelib-yugurib xizmat qilib yuribdi. Shundan mening boshim osmonda.

Chorpoyaga jiddiy qiyofadagi Xalil oqsoqol yaqinlashdi.

Kech tushib qolayapti, Saydulla. Kuyovni jo'naB-tadigan vaqt bo'lib qoldi-yov. Borsa borib, o'tirib kelishsin bir-ikki soat.

Siz vaqt bo'ldi dedingizmi, oqsoqol, demak vaqt bo'lgan! deya Saydulla aka Xudoyberdi akaga o'girildi: Qani, jo'ra, kuyovjo'ralarni shayla.

Hammasi o'qlangan miltiqday shay bo'lib turishibdi.

Nechta mashina bor, necha kishi boradi, hammasi kelishilganmi? tekshirib ko'ra boshladi Xalil oqsoB-qol.

Hammasi kelishilgan, oqsoqol, kelishilgan. Xudoyberdi aka hovliga qarab baqirdi: Mardon, hov Mardon!

Ichkaridan Mardonning ovozi eshitildi:

Ha?

Jo'ralarini yig', baqirdi Xudoyberdi aka. Hozir jo'naysizlar. Tuzukmi? Nechta mashina yig'ildi?

Uchta. Ikkita "Neksiya", bitta "Jiguli".

Bo'ladi. Ayollarni "Damas"ga olamiz, qoniqish bilan tin olgan Xudoyberdi aka Fayzullaga o'girildi. Ukajon, shundoq birga borasiz-u, bularga bosh bo'lib, bir-ikki soat o'tirib qaytasiz, tuzukmi?

Qayoqqa? hayron bo'lib so'radi Fayzulla.

Qiz vecherga, tushuntirdi Xudoyberdi aka. O'zim jon deb borardim-u, manavi zormandadan ozgina otib qo'ydim. Bu tomonda GAI-PAI yo'g'-u, lekin ichsam qo'lim qaltiraydigan bo'lib qolgan.

Bir og'iz gapingiz, aka. Bu yerga xizmat qilamiz deb kelganmiz.

Odatga ko'ra, kuyovjo'ralarga qo'shilib uch-to'rtta ayol ham borishi kerak. Shularni mashingizga olasiz. Bo'ldi. Tuzukmi?

Fayzulla iljaydi:

Tuzuk.

Yetib borgandan soatga qaraysiz, o'rgata boshladi Xudoyberdi aka. Yoshlar o'ynab-kulishsin. Bir yarim-ikki soatdan keyin to'y oqsoqolidan ruxsat so'raysiz. Shu bilan hammani yig'ishtirib qaytaverasiz. Bironyasi "To'yni davom ettiramiz" deb tixirlik qilsa meni ayting, darrov popugi pasayadi-qoladi.

Xo'p, aka. Men mashinaga qaray bo'lmasa. Fayzulla suzilibgina o'tirgan akasiga qaradi: Aka, kalit...

Nima? Kalit?.. Ma... Saydulla aka shimining cho'ntagidan mashina kalitini chiqarib berdi. Orqasini salgina turtib olganman.

Lekin yaxshilab qaramasang bilinmaydi, uka, bilinmaydi.

Mayli, aka, mayli...

Fayzulla hovlidan o'tib borayotgan mahal yoniga o'g'li Azim chopqillab keldi.

Ada, yo'l bo'lsin?

Kuyovni "qiz vecher"ga olib borib kelishim kerak ekan.

Qizlar majlisigami? Azim hovliga alangladi. Boshqa ish yo'qqa o'xshaydi. Man ham siz bilan birga borsam maylimi, adajon?

Mayli, yuraqol, o'g'lim.

Ota-bola hovlidan birga chiqib ketishdi.

Bu oqshom qishloqda Ashirmat tog'aning uyida to'y: Nozima "qiz majlisi"ni o'tkazmoqda.

Hovliga "P" shaklida stollar qo'yilgan. To'rda kelin-kuyov uchun joy ajratilgan. Ular o'tiradigan joy ortiga osilgan gilamda bir juft nikoh uzugi hamda "Mardonjon", "Nozimaxon" ismlari paxta bilan yozilgan. Bu stolga turfa ichimliklar bilan bir qatorda kattagina guldasta va tort ham qo'yilgan. Pastroqdagi chorpoya artistlar uchun. Unda hofiz Rashid boshchiligidagi artistlar guruhi. Guruh disk almashtirib turuvchi yigit, ovozni sozlab turuvchi erkakdan hamda asli ismi Gulmira, biroq nimagadir hamma Gulbadan deb ataydigan raqqosadan iborat. Chorpoya o'rtasiga xontaxta qo'yilib, bezatilgan. Katta-katta ovoz kuchaytirgich karnaylar uch-to'rt joyga qo'yilgan.

Endigina boshlangan to'yni qishloqda mahmaB-doB-naB-ligi bilan tilga tushgan Rohila olib borayapti. Odatdagidek, to'ya mehmondan tomoshabin ko'p. Ular safida yosh-yalanglar, xotin-xalaj bilan bir qatorda labini yalab turgan yigitlar, erkaklar ham anchagina. Stolda ham yosh-yalanglar qatori katta yoshli erkaklar, ayollar ham o'tirishibdi. Hovli chekkarog'idagi katta qozonda ovqat qaynayapti. Uning atrofini oshpaz bilan birga besh-oltita erkak o'rab olgan. Qozon yonidagi molxonaning bir xonasi ombor qilingan. U yerda turli kattalikdagi likopcha va taqsimchalarda gazaklar, pishiriqlar zaxiraga olib qo'yilgan. Ellik yoshlardagi badqovoq, cho'tir yuzli xona qo'riqchisi Abdusamadning yonida, fufayka tagida aroq shishalari.

Hofiz og'irroq qo'shiq aytmoqda: "Bugun qo'shni qishloqqa, kelin tushdi, yor-yor, Borolmayman u yoqqa, or qilaman, or-or..."

Shu payt uzluksiz mashina signallari ovozi eshitildi, hovli yonini o'tkir mashina chiroqlari nurlari yoritdi. Rohila shoshib borib mikrofonni Hofizning qo'lidan oldi.

etib keldi. Bugun Amir aka bilan Xolida xolaning nurli xonadonida haqiqiy ayyom boshlanmoqda. Dugonam Nozimaxonning baxt va visol oqshomiga xush kelibsiz!.. Ushbu kechamizni yanada maroqli o'tkazish uchun tashrif buyurgan viloyatimizning taniqli hofizi Rashid Nuraliev boshchiligidagi san'atkorlar guruhi sizning xizmatigizda. Betimsol Gulbadanxonim esa ajoyib raqslari bilan hammamizni xushnud etishi shubhasiz! Marhamat, san'atkorlar!

Baland ovozda "To'ylar muborak" qo'shig'i yangradi. Mashinadan tushib kelgan kuyov va kuyovjo'ralarni kutib olgan yangalar ularni darhol stolga boshlashdi. Fayzullaning "Damas"ida o'tirgan Mardonning ikki singlisi va yangasi Mahfirat checha ham mashinadan tushasola stol tomon yurishdi. Fayzulla mashinani chekkaroqqa oldi. Tushib, eshiklarni qulflagandan keyingina atrofini hayratlanib kuzatayotgan o'g'li bilan birga to'yxona tomon yurdi. Ota-bolaga kelgan mehmonlar bilan "o'n gramm-o'n gramm" ichaverib, allaqachon mast bo'lib olgan Amir aka quchoq ochganicha peshvoz chiqdi.

Kelsinlar, qudalar, kelsinlar, g'o'ldiradi Amir aka. Qadamlariga hasanot.

Amir aka avval Fayzullani, keyin Azimni quchoqlab, bag'riga bosdi. Darvozadan quchoq'ini keng ochgan, ancha kayfi bor Ashirmat tog'a chiqib keldi. Umuman o'zi bu odamni hushyor yurgan holda tasavvur etishning o'zi mushkul edi.

Kutdirib qo'ydilaring-ku, quda, deya gapni o'pkalashdan boshladi Ashirmat tog'a. Yana besh minut kelmaganlaringda, ashqol-dashqollaringni ko'chaga olib chiqib otmoqchiydim lekin. Voh-hoh-ho! Qani, ichkariga marhamat.

Fayzulla qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

Uzr, quda.

Ashirmat tog'a bilan Amir aka ota-bolani ichkariga, stollarga boshlab borishdi. Xizmatda yurgan yigitlar o'tirganlarni sura-sura ota-bolaga bir amallab stolning chekkarog'idan, kelin-kuyovga yaqin joydan o'rin topib berishdi. Ammo xuddi shunday bo'lishi kerakday, Ashirmat tog'a bilan Amir aka bunga parvo ham qilishmadi. O'tirganlaridan so'ng Fayzulla kaftlarini bir-biriga juftladi:

Omin, ikki yosh baxtli bo'lsin.

Bo'lsin... Ashirmat tog'a bir kaftini yuziga siypagan bo'ldi. To'satdan o'z-o'zidan uning ikkinchi qo'lida aroq shishasi paydo bo'ldi.

Biz tomonlarda, quda, butilkani bunday ochadilar.

Ashirmat tog'a shishaning tagiga kafti bilan bir urgandi, shishaning po'kagi otilib ketib, ozgina aroq Fayzullaning ustiga to'kildi.

Biroq Ashirmat tog'a bunga e'tibor ham bermadi.

Qudalarga shtrafnoy, aka, g'o'ldiradi Amir aka.

Gap bo'lishi mumkin emas. Ashirmat tog'a ikkita kattagina, kichikroq kosaday keladigan piyolaga aroqni lim-lim qilib quydi va

bo'shagan shishani stol tagiga tashlab yubordi. Marhamat, qudalar. Ikki yoshning baxti uchun "oq" qilib tashlaysizlar endi. Ana shundan keyin sizlarni kechirish-kechirmaslikni o'ylab ko'ramiz.

Ashirmat tog'a bir piyolani Fayzullaga, ikkinchisini Azimga tutdi. Buni ko'rgan Azimning hayratdan og'zi ochilib qoldi, lekin piyolani olmadi.

Rahmat, quda, yana qo'lini ko'ksiga qo'ydi Fayzulla. Lekin men ruldaman.

Nima? dedi Amir aka Fayzulla tomon engashib.

Ruldaman. Fayzulla qo'li bilan o'zini rul chamabaragini aylantirayotganday qilib ko'rsatdi.

Ashirmat tog'a:

Nima qipti shunga? deb so'radi hayron bo'lib.

Fayzulla garangsib qoldi:

Axir... yo'lda...

Bu territoriyaga mana men javob beraman! ko'kragini kerdi Ashirmat tog'a. Lyuboy GAI ushlasa, "Ashirmat akaning odamiman" deng, chestKj berib kuzatib qolmasa oldimga qaytib keling, otimni boshqa qo'yaman!

Rahmat, quda, lekin o'zimam ichkilikni uncha xushlamayman.

Ashirmat tog'a Amir akaga o'girildi:

Buning nima deyapti, uka? Esi joyidami o'zi?

Ha, endi, aka, quda degani biroz o'zini taroziga soladi-da, beparvo qo'l siltadi Amir aka. Bu kishi shahar ko'rganlardan bo'lsa.

Jahli chiqqan Ashirmat tog'aning lablari pir-pir ucha boshladi.

Shahar-paharingni bilmayman. Bu yerning o'z qonun-qoidalarini bor, uka! Shuni ichmaysanmi, demak bizni hurmat qilmaysan!

Shuni ichmaysanmi, demak kelin-kuyovning baxtli bo'lishini xohlamaysan. Shuni ichmaysanmi, demak biz qishloqlarni pisand

qilmaysan. Shuni ichmaysanmi, demak akang to'yga samodelka arzon, sassiq aroqdan yuborganini bilasan, shuning uchun ichging

kelmay turibdi. Demak, bizga o'xshaganlarga bo'laverar ekan-u, senga o'xshaganlarga to'g'ri kelmas ekan-da bu, a? Shundaymi?

Fayzulla shoshib qoldi:

Quda bova, unaqa demang, men chin ko'ngildan...

Demak, senda bor ko'ngil bizda yo'q ekan-da! Shundaymi?

Quda bova...

Bo'lmasa mana bu yigitchaga beraylik! deya Ashirmat tog'a Azimni ko'rsatdi.

Yo'q, yo'q! dedi Fayzulla shoshib. Bu hali go'dak-ku. Bu mening o'g'lim. Endi o'n oltiga kirayapti.

Men bu yoshimda paqirlab ichardim, deb qo'ydi Amir aka.

Gap ichishda emas, uka. Gap hurmatda, sal yotig'i bilan gapirishga urindi Ashirmat tog'a. Raz shundan-shunga kelibsizmi, to'y egalarining hurmatiga deb yuz grammgina ichib yuborsangiz nima qiladi! Yo' bizni o'zingizga teng ko'rmayapsizmi?

Nega endi, quda. Aksincha, chin, samimiy hurmat... Fayzulla sal dovdirab qoldi. Men o'ylovdimki, hurmat faqat ichish bilan

belgilanmaydi. Buning ustiga bo'lg'usi kuyovingizning singillarini, chechasini qishloqqa eson-omon olib borish mas'uliyati...

Nimagadir jahd qilganligi yuzidan bilinib turgan Ashirmat tog'a Fayzullaga qattiq tikilib, aroq lim-lim piyolani tutdi:

Agar... agar shuni "oq" qilib tashlamasang, uka, hozir, shu yerning o'ziga xotinimni chaqiraman-da, "uch taloq" qilaman. Ana

shundan keyin butun gunohi sening bo'yningga tushadi

Bu gapni eshitgan Fayzulla lol bo'lib qoldi.

Bu aytganini qiladi, quda, dedi Amir aka. Xotinini taloq qilish ham gapmi, tutib qolsa to'yni ham buzadi.

Buzaman ham! nimagadir o'pkasi to'lib ketgan Ashirmat tog'aning tovushi titradi. Bizni mirlamaydigan odamlar bilan quda

bo'lgandan ko'ra...

Bo'layotgan voqealar tush emasligiga, o'zini goh "sen"lab, goh "siz"layotgan bu odam mastlik ustida aytganini qilib

yuborishiga iqror bo'lgan Fayzulla hamon lol-kaB-raxt bo'lsa-da, bir amallab o'zini qo'lga olishga urindi.

Agar hammasi shu... shunga bog'liq bo'lsa... beB-ring-e... Fayzulla ko'zlarini chirt yumgancha piyoladagi aroqni ichib yubordi.

Uning afti burishdi, ko'zlaridan duvillab yosh oqdi. Fayzulla amallab ko'zlarini ochdi va Amir aka nim egilinqirab tutib turgan

gazak qayB-natilgan mol o'pkasining bir bo'lakchasini olib, og'ziga soldi. Bo'ldimi?

Ashirmat tog'a mamnun tarzda Fayzullani quchoqlab, yuzidan o'pdi.

Ha, bu boshqa gap. Bilgandim o'zimizdan ekanligingizni, quda. Shu sal noz qildingiz-da. Sizlar o'tirib turingizlar. Biz ichkaridagi nozik mehmonlarda xabar olaylik, hali yana kelamiz.

Ashirmat tog'a bilan Amir aka ketishdi. Shu zahoti ularning o'rniga ikkita yosh yigit o'tirib oldi. Fayzulla o'g'liga aybdorona qaradi.

Azim otasi tomon engashib gapirarkan, negadir duduqlandi:

Juda... G'alati odamlar ekan.

To'yda shunaqasiyam bo'p turadi, o'g'lidan ko'ra ko'proq o'zini ishontirishga urindi Fayzulla. Xo'sh, o'g'lim, qalay, qiz majlisi yoqayaptimi?

Azim yelka qisdi:

Hozircha Qodiriy tasvirlagan gullar, lolalar, to'tilar, qumrilar majlisini emas, u kelin-kuyovning stolida turgan turfa spirtli

ichimliklarga ishora qildi, aroqlar, konKjyaklar, vinolar majlisini ko'rayapman.

Buyam zamonning zaylidir-da... deb qo'ydi Fayzulla.

Adajon, hech narsa yemadingiz-a? dedi Azim.

Qornim to'q. Yaxshisi, o'g'lim, bunday qilaylik. Anavilar balo-qazoday bo'lib yana bostirib kelmasidan burun chekkaroqqa o'tib

olaylik. To'yni odamlar orasida tik turib tomosha qilarmiz. Bolalardan xabar olib turishimiz ham oson bo'lar. Har qalay, joyimiz

bo'sh qoladiganga o'xshamaydi.

Xo'p bo'ladi, adajon.

Fayzulla asta o'rnidan turdi. Azim unga ergashdi. Darhaqiqat, ular o'rinlaridan turar-turmas orqada zich bo'lib turgan

tomoshabinlar orasidan ikki kishi zudlikda sirg'alib chiqib, ota-bolaning o'rnini egallashdi va jon-jahdlari bilan aroq shishasiga

yopishishdi. Fayzulla bilan Azim asta ortga chekinib, tomoshabinlar safidan joy olishdi. Ota-bola davrani kuzatib turishdi. Kuyov

tarafdan kelgan mehmonlar uchun kelinning chap tarafidan joy ajratilgan. Mehmondorchilik quyuuq. Xizmatdagi yigitlar

kuyovjo'ralarga mulozamat qilib turishibdi. Ularning o'zlari ham bemalol piyolalarga aroq, konKjyak, vino quyib olishayapti.

Kuyovjo'ralardan biri Mahfirat chechaga konKjyak quyib uzatayapti. Yana bir kuyov jo'ra qizlarni aroq bilan mehmon qilishga

urinayapti. Buni ko'rib jahli chiqqan Fayzulla tez-tez yurib, tomoshabinlar ortidan o'tdi va kuyovjo'ralar yoniga borib, Mahfirat chechaga konKjyak uzatib turgan yigit kuyovjo'ra Nabiga murojaat qildi.

Mehmondamiz, uka. Sal kamtarroq bo'linglar. Shuncha odam sizlarga qarab turibdi. Juda ichkilaring kelsa, uyga borganlaringdan keyin o'zim topib beraman.

To'y to'yday bo'lsin-da, Fayzulla aka, qizg'inlik bilan gapirdi Nabi. Bu yerga bir bitimiz to'kilib yayraylik deb kelganmiz. Buning ustiga bu yer shahar emas, qishloq. Qishloqda esa odam faqat to'yda dam oladi, aka.

Fayzulla indamay ortga qaytdi va yana o'g'lining yoniga kelib, tomoshabinlar safidan joy oldi.

Navbatdagi qo'shiq tugadi. O'rtakash qiz ildam kelib, hofizning qo'lidan mikrofonni oldi.

Katta rahmat, san'atkorlar. San'atlaringga san'at qo'shilaversin. Rohila qo'lidagi bir parcha qog'ozga qarab oldi. Ana endi tabrik uchun so'z navbatini kelinning tog'alaridan bo'lmish fermer Ibodulla akaga beramiz. Marhamat, Ibodulla aka!

Davruga anchayin abgor kiyimdagi, ehtimol to'g'ri daladan kelgan, shu sababli o'zini noqulay his qilayotgan ellik yoshlardagi do'ppili kishi chiqib keldi. U mikrofonni qo'lga oldi, ammo gapirishga qiynalayotgani sezilib turardi.

So'z berganingiz uchun... rahmat, rais bova, deya xirqiragan ovozda gap boshladi Ibodulla fermer.

O'tirganlardan bir-ikkita piqirlab kulib yubordi. Ibodulla akaning yonida turgan o'rtakash qiz jilmayib qo'ydi va mikrofon tomonga engashdi.

Men rais bova emasman, Ibodulla aka, dedi u istehzo bilan.

Fermer battar o'ng'aysizlanadi. Shu payt fermerning yoniga katta piyola to'la aroq ko'targan Ashirmat tog'a yaqin keldi va piyolani unga tutdi. Darhol piyolani qo'lga olgan fermer endi sal silliqroq gapirishga o'tdi:

Men xudodan jiyanimning baxtli bo'lishini so'rab qolaman... Qani, oldik. Hammalaringdan... oldilaringdagi qadahlarni "oq" qilib berishlaringni so'rab qolaman.

Yengil chapak eshitildi.

Bilasiz-a, bizda shaxsiy ibrat degan narsa bor, Ibodulla aka, dedi Rohila.

Ibodulla fermer piyolani bir ko'tarishda "oq" qilib ichib berdi va shunday ichganini isbotlayotganday piyolani to'ntarib ko'rsatdi.

So'ng Ashirmat tog'ani mahkam quchoqlab oldi. Ikkovlon o'pishishdi. Shuni kutib turganday, Rohilaning ishorasi bilan san'atkorlar sho'x va baland ovozdagi musiqani qo'yib yuborishdi. Ibodulla akaning joyi tomon ketayotganini ko'rgan Rohila uning yo'lini to'sdi.

Yo'q, yo'q, Ibodulla aka. Endi o'ynab bermasdan turib davrani tark etmaysiz.

Sho'x musiqa kuchaydi. Hofiz qo'shig'ini boshladi. O'rtaga yo'rg'alab raqqosa Gulbadan chiqib keldi va fermerning yo'lini to'sib, uning qarshisida g'amza bilan o'ynay boshladi. Bir-ikki o'xshovsiz tarzda qo'lini ko'tarib qo'ygan Ibodulla aka nihoyat cho'ntagidan bir dasta pul chiqarib berganidan so'nggina Gulbadan uning ketishiga izn berganday yo'lni bo'shatdi. Ashirmat tog'aning ishorasi bilan kelin taraf qarindoshlari gurillab o'rinaridan turishdi va saf bo'lib kelib raqqosa bilan hofizga pul qistirishga tushishdi.

Rohila hofizning yoniga kelib, mikrofonga qichqirdi:

Kelin tomon jo'sh, kuyov tomon bo'sh!

Buni eshitgan Mahfirat checha asabiylashib, yonida o'tirgan yigitlarga ishora qildi. Endi kuyov tarafdin kelgan mehmonlar birvarakayiga o'rinaridan turishdi va qatorlashib kelib raqqosa bilan hofizga pul qistira boshlashdi. Fayzulla shosha-pisha ularga yetib oldi va navbatda turib, hofiz bilan raqqosaga pul ulashdi.

Terlab ketgan Fayzulla joyiga, tomoshabinlar orasida turgan o'g'lining yoniga qaytib kelgach, bilagidagi soatga qaradi va og'ir uf tortib qo'ydi:

Endi yarim soat o'tibdi-ya...

Azim kulimsiradi:

Bunaqa mahallari vaqt o'tishi qiyin bo'lib qoladi, adajon. Vaqt nisbiy deganlari shu-da...

* * *

Nisbiymi, nisbiy emasmi, har tugul vaqt asta sekinlik bilan bo'lsa ham o'taverdi.

To'y davrasi esa tobora qizib borardi. Yigirmadan oshiq yigit-qiz, erkak-ayol davrani changitib raqsga tushib yotishibdi. Raqqosa otarchi Gulbadan stol oralab, iloji boricha ko'proq pul yig'ishga uringan. U ora-sira biron o'ziga orqa o'girib o'tirgan mehmonning ortidan borib, ko'kragi bilan uning yelkasidan turtadi. Mehmon noiloj pul chiqarib bergan. Mast mehmonlar ularning aksariyati yosh yigitlar esa zo'r berib Gulbadanni quchoqlab olishga, uning ko'kraklari orasiga pul qistirishga harakat qilishgan. Gulbadan noz-firoq bilan ulardan qochishga intiladi, ammo bunga astoydil urinmayotganligi sezilib turadi. Bunga sayin uning ishqibozlari soni orta boradi. Hatto ellik-oltmish yoshli erkaklar ham og'izlaridan so'laklari oqquday ahvolda Gulbadanga qarab qolishgan. Tomoshabin ayollar orasidan esa qarg'ishlar eshitilib qoladi: "Yashshamagur uyatsiz!.. Orqasini likillatishini!.. Iloyo shuytib topgan puling o'limligingga buyursin!.. Obid, bor otangni chaqir!.. Voy sharmanda! Bundan ko'ra shir-yalang'och bo'lib ola qol edi!.."

O'g'lining bu g'alati izdihomga ajablanib termulib qolganini ko'rgan Fayzulla asta tomoshabinlar orasidan sirg'alib chiqdi va hovlining ochiq tomoniga yurdi.

Hovlidagi daraxt yonida bir mast erkak xotiniga zug'um qilmoqda edi.

Tez uyga borib ellik ming olib kel deya senga! deya talab qildi erkak.

Bormayman ham, opkelmayman ham! yig'lamB-siradi ayol. Bilaman pul nega kerak bo'lib qolganini! Anavi oyimchaga qistirmoqchisiz!

Bor deya senga!

Bormayman! Bolalaringizning rizqini bir jalab xotinga sochib yuborishingizga yo'l qo'ymayman!

Bor deya senga!

Bormayman!

Mana bormasang!

Tarsaki ovozi eshitildi, xotin izillab yig'ladi.

Fayzulla seskanib ketib avval shu tomonga yurdi, ammo ayolning yuzini ushlagancha zipillab hovlidan chiqib ketayotganini ko'rgach, chap tomonga qayrildi.

Ombor yonida turgan uch-to'rt yigit esa zo'r berib bir nimani muhokama qilishardi.

Shunday borib, so'liqillagan bilagidan mahkam changallagandim, o'ziyam erib ketdi, deya maqtandi birinchi yigit.

Birga o'ynayotgan paytimizda uch-to'rt marta ko'kragini ko'kragimga tekizib-tekizib oldi. Atay qildi, bilib turibman, bo'sh kelmadi ikinchisi.

Bir piyola aroq tutib, "To'ydan keyin ko'rishsak bo'ladimi, jonon qiz Gulbadanxon?" degandim, "Mayli, jonon yigit" dedi qichiq qilib, og'zining suvi qochib gapirdi uchinchi yigit.

To'rtinchi yigit gurunnga xotima yasadi:

Bo'lmasa bunday valaqlashib o'tiravermanglar-da, konkret borib gaplashinglar. Bir kechaga qanchaga ko'narkan? Lekin narxini ja osmon qilib yubormasin. Mashina, joy mendan.

E, qancha so'rasayam mayli deyaveramiz, pachaq ko'kragini kerdi birinchi yigit. Oboradigan joyimizga oborib olaylik, keyin pul so'rashgayam holi qolmaydigan qilib tashlaymiz.

ZapchastKj qilib sochib tashlayman uni! uchinchi yigitning og'zidan ko'pik sachradi. Emaklab ketolsayam rahmat desin.

Bo'пти, men mashinaga ketdim, dedi to'rtinchi yigit ishbilarmonlik bilan. Boringlar, gaplashinglar.

Yigitlar qorong'ulik bag'riga singib ketishdi.

Ko'ngli g'ash tortgan Fayzulla yelka qisib qo'ydi. Ammo shaharlik mehmon duch keladigan vaziyatlar shu bilangina yakun topmagan ekan. Ombor yonidagi yo'lakda o'ttiz besh yoshlardagi erkak yetmish yoshlardagi, qaddi bukchaygan, qasaba ro'mol o'ragan kekxa onaxonga yolvorardi:

Enajon, jon enajon, o'n minggina berib turing! Jon ena! O'rtoqlarimning oldida sharmanda qilmang.

Enang o'lib enasiz qolgur, axir boyagina bor pensiyamni qoqlab olding-ku, dedi kampir fig'oni chiqib.

Yig'ib qo'yganingiz bor-ku, ena, o'shandan o'n minggina berib turing. Enajon, jon ena Hamma o'rtoqlarim qistirayapti. Bitta men shumshayib o'tiribman...

Bolam-a, sho'rlik bolam-a... Onaxon qasaba ro'molini yecha boshladi.

Ombor yonidagi ustunga suyanib qolgan ancha kayfi bor Ismat ismli yigit yulduzlar bodroqdek sochilgan osmonga tikilib qolgandi. Uning ko'zlarida yosh miltiraydi. Shu payt Ismatning yoniga choynak ko'targan o'rtog'i Xayrulla kelib qoldi.

Ha, Ismatvoy, ja osmonga turmulib qopsan. Tinchlikmi?

E, Xayrulla, qara, shunday qizni qo'ldan chiqarib o'tiribman-a, dedi Ismat afsus-nadomat bilan. Nozimaning ochilib ketganini ko'rdingmi?

Ha, kelin ko'yлак juda chiroyli qilib yuboribdi Nozimani, tan oldi Xayrulla. Lekin hech shu qizda ko'ngling borligini bilmagan ekanman.

O'zimam hozir bildim. Esrab ko'rsam, o'n birda o'qib yurganimizda u menga bir-ikki marta umidvor-umidvor qarab qo'ygan edi. Men tentak bo'lsa Asalning orqasidan chopib yuraveribman.

Uyam ketdi-bordi. Buni nega eslab qolding?

O'zimam bilmayman. Lekin hozir borib anavi jinqarcha kuyov bolaning basharasiga solib-solib yuborgim kelayapti.

O'zingni bos, jo'ra. Qarindoshimiz-a. To'yni kelib-kelib sen buzsang uyat bo'ladi. Men hozir, choy so'rashB-gandi.

Xayrulla shoshib yo'lida davom etdi. Ismat esa bir narsani hal qila olmayotgan odamday o'ychan holda o'ziga o'zi gapirdi:

Unday qilsammikan, bunday qilsammikan...

Bunaqa tomoshalardan kayfiyati tushib ketgan Fayzulla darrov o'g'lining yoniga qaytdi. Azim hamon o'sha joyida turar va davradan ko'z uzmasdi.

Fayzulla bilagidagi soatiga qarab qo'ydi:

Kelganimizga to'ppa-to'g'ri bir yarim soat bo'ldi. Endi ketishga tayyorgarlik ko'raversak ham bo'lar.

Yaxshi bo'lardi, deb qo'ydi Azim.

Men biron oqsoqolni topay.

Fayzulla oqsoqol izlab ketdi.

Davrada yer tepinib, terlab-pishib raqs tushayotgan Nabini kutilmaganda Gulbadanning qarshisida o'ynayotgan mezbon yigitlardan biri bo'lgan Ismat turtib yubordi.

Ha, jo'ra, keng joyga sig'may qoldingmi? dedi Nabi yigitga o'girilib.

Ismat birdan do'q urishga o'tdi:

O'ynasang qisib o'yna!

Nabining jahli chiqib ketdi:

Bu nima deganing. Og'zingga qarab gapir!

Ismat yana balanddan keldi:

Hozir o'zingning og'zingni ayirib tashlardim-u...

Qo'lingdan kelganini qil-chi! qo'llarini musht qilib tugdi Nabi. Menam qarab turmasman!

Qarab turmaganingda nima qilarding?

Basharangni bejab tashlayman!

E, onangni...

Ismat Nabi tomonga hezlandi. Shu payt ularning yonida paydo bo'lgan Xayrulla Ismatni quchoqlab olib, nariga sudradi.

Ismat, hozirgina senga nima degandim! deya o'rtog'ini urishib berdi Xayrulla.

Ismat Nabiga musht o'qtaldi:

Qarab tur hali, to'ydan keyin uyingga yetolmaydigan qilib qo'yaman!

Xayrulla Ismatni davradan olib chiqib ketdi. Nabi o'yinga tushishda davom etaverdi. Hovliga o'tishgach, Xayrullaning quchog'idan siltanib chiqqan Ismat bir chekkaga o'tdi va yaqin-atrofdagi yurgan yigitlarni jangovar qiyofada bir-bir chaqira boshladi:

Zoyir. Chaqir Rustamni. Zokiram esdan chiqmasin. Hoy, Olim. Tez Ilhomni top.

Tinchlikmi, Ismat? deb so'radi Zoyir.

Kuyovjo'ralardan bittasi menga quruqlik qilB-di, tushuntirdi Ismat. To'ydan keyin kunini ko'rB-satamiz!

Zoyir xursand bo'lib kaftlarini bir-biriga ishqadi:

E, hozir hammani topaman. Sen iskaladdan bir-ikkita aroq olib tur. Qizishib olish uchun.

15 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Sen aroqdan g'am yema! Ikkita bo'lmasa to'rtta olaman. Qarindoshman, axir...

* * *

Davrada yer tepinib raqsga tushayotgan olomon safi tobora kengayaverdi, kengayaverdi. Kelin-kuyov o'rnidan turib, o'ynayotganlarga pul uzatishi urf bo'lgan ekan, Mardon bilan Nozima buniyam ado etishdi.

Bu orada Fayzulla oqsoqol izlab charchadi. U yoshi kattaroq ko'ringan odamni ko'rsa bas, yoniga chopib boradi, ammo ularning aksariyati mast. Mast emaslari esa yelka uning savoliga yelka qisib javob berishadi, xolos. Nihoyat Fayzulla badrafxona tomonga alpong-talpong qadam tashlab ketayotgan Amir akani ko'rib qoldiyu, darrov qudasining yo'lini kesib chiqdi.

Amir aka, endi bizga ruxsat bersangiz. Vaqt ham allamahol bo'lib qoldi.

Amir aka Fayzullaga ajablanib qaradi:

Ruxsat? Qanaqa ruxsat? Bugun to'y ertalabgacha davom etadi. Erkatoy qizimning to'yi to'ymisan to'y bo'lishi kerak! To'g'rimi, qudam?

To'g'ri, Amir aka, darrov qudasining fikrini ma'qulladi Fayzulla. Lekin kuyov bola uyiga borib ozroq dam olishi ham kerak.

Ertaga katta to'y. To'y tashvishlari qanday bo'lishini o'zingiz yaxshi bilasiz.

Unday bo'lsa... Amir aka o'ylanib qoldi. Unday bo'lsa avval "yo'lochar"ga yuzta-yuzta olamiz, ana undan keyin qachon javob berishni gaplashamiz. Men hozir...

Amir aka hojatxona tomon chayqalib yurib ketdi.

"Uh" tortib qo'ygan Fayzulla qozon yuvayotgan oshpazning yoniga bordi.

Aka, kechirasiz, Hoji bobo ko'rinmadilarmi?

Oshpaz bosh chayqadi.

Hoji bobo pokiza inson. U kishi bunaqangi joylarga kelishdan or qiladilar. Buni qarang, oshpaz uyulib yotgan non bo'laklariga ishora qildi. Bunisi-chi? Oshpaz ikkita kir tog'oraga solingan ovqat qoldiqlarini ko'rsatdi. Uvol emasmi? To'qlikka sho'xlikning ham chegarasi bo'lishi kerak-ku axir. Bir oydan beri qishloqda har kuni ikki-uch uyda to'y. Har kuni shu ahvol. Gapiraverib Hoji boboning og'zi charchadi. Oxiri gapirmay ham, kelmay ham qo'ydi.

E, shunaqa deng... Afsus.

Tinchlikmidi, aka?

Davrani yopib, duo beradigan bir keksaroq otaxon, iloji bo'lsa oqsoqollardan birini qidirib yurgandim.

Bunaqangi davralarda "bo'yni uzun mo'ysafid"dan boshqa oqsoqol topolmassiz-ov, aka, kuyinib dedi oshpaz. Shunday bo'lsayam bir urinib ko'ring.

Fayzulla yana davraga yaqinlashdi. O'rtada Ashirmat tog'a uch-to'rt tengdoshi bilan o'ynayapti. Fayzulla atrofga alangladi. Xuddi shu payt uning yonidan Amir aka zipillab o'tib ketdi va to'g'ri o'ynayotganlar davrasiga borib qo'shildi. So'ng Amir aka Ashirmat tog'ani quchoqlab oldi. Aka-uka shu hollarida kelin-kuyov o'tirgan joyga yaqinlashdilar va piyolalarga aroq quyib, ular bilan cho'qishtirib ichdilar. Buni ko'rib turgan otarchi hofiz qo'shiq aytayotgan joyida o'rtakash qizga qarab ko'z qisib qo'ydi. Rohila ildam kelib mikrofonni qo'lga oldi va tantanali tarzda e'lon qildi:

Mana endi, azizlar, kelinchagimizning jondan aziz padari buzrukvori Amir akamizning iltimosiga ko'ra kelin va kuyov ishtirokida sho'x bir raqsnı tomosha qilami-iz! Sovg'a-salomini berishga ulgurolmay qolganlar uchun ajoyib imkoniyat! Marhamat, san'atkorlar!

Sho'x qo'shiq yangradi. Kelin bilan kuyov davraga chiqib kelishdi va raqs tusha boshlashdi. Davra ikkiga ajraldi. Kelin-kuyov raqsiga Amir aka qo'shildi! Pul degani yomg'irday yog'ildi kelin-kuyov va Amir aka ustiga! Raqqosa Gulbadan ularni terib olishgayam ulgurolmay qoldi. Qo'shiq yarimlamay turib bu raqsga Ashirmat tog'a ham qo'shilib ketdi. Keyin boshqalar. Davradan yana chang ko'kka ko'tarildi. Mast Amir aka kelinchak Nozimani mahkam quchoqlab olganicha ho'ngrab yig'lab yubordi. Qaydandir paydo bo'lgan Xolida xola qizining ortidan kelib, uning yelkasiga bosh qo'yganicha eriga qo'shilishib piqillab yig'lay boshladi. Ammo olomon jazava bilan raqs tushmoqda. Yer tepinib, terlab-pishib, changga ko'milib o'ynayotganlar faqat sho'x musiqani va o'ynoqi ashulani eshitishadi, ular faqat raqs tushayotganlarni ko'rishadi. O'ynayotgan erkaklar ayollarni, chunonchi otarchi Gulbadanni ko'rishmoqda, xolos. Gulbadan faqat pulni. Qiz-juvonlar erkaklarni...

Har qalay, kimningdir fahmi yetdi chog'i, kelin-kuyovni bir amallab joyiga o'tqazib qo'yishdi. Qo'shiq sur'ati sal susayganday bo'ldi. Maza qilib raqs tushayotgan, ko'zlari qonga to'lgan, terlab ketgan Ismat qo'shiq aytayotgan hofizning yoniga bordi.

To'xtamay aytavering, aka! deya Ismat qo'shiq aytayotgan hofizning qulog'i tagiga kelib baqirdi. Bu yog'iga o'zim javob beraman!

Hofiz bosh ishorasi bilan "xo'p" deb qo'ydi. Qo'shiq kuchaydi. Boyagi uch yigit endi Gulbadanni o'rta olishdi. Hadeb badanlarini otarchi raqqosaning badaniga tekkizishga urinayotgan yigitlardan biri shartta Gulbadanning bilagidan tutdi.

Bu oqshom shu yerda qolasiz, jonidan, dedi u raqqosaga hirs bilan tikilarkan.

Yigitning qo'lidan chiqib ketib, raqs tushishda davom etayotgan Gulbadan ishva bilan "yo'q" ishorasini qildi. Buni ko'rib battar qoni qizib ketgan ikkinchi yigit dangaliga ko'chdi:

Yuz ming!

Gulbadan yana "yo'q" ishorasini qildi.

Har birimizdan! deya va'dani katta berib yubordi uchinchi yigit.

Gulbadan yana "yo'q" ishorasini qildi va chaqqonlik bilan yigitlar orasidan sirg'alib o'tib, qo'lidagi pullarni chorpoyada o'tirgan erkak yonida turgan tor g'ilofi ichiga oborib tashladi.

Noz qilayapti, qanjiq! tishlarini g'ijirlatdi ikkinchi yigit.

O'zi lekin o'lib turibdi! gapni ilib ketdi birinchi yigit.

Qani, egasi bilan yaxshilikcha gaplashib ko'raylik, agar ko'nmasa... O'zidan ko'rsin, degan qarorini e'lon qildi uchinchi yigit.

Yigitlar fonogrammada qo'shiq kuylayotgan hofiz yoniga borishdi.

Menga qarang, dedi birinchi yigit sira ham yaxshilik va'da qilmaydigan ohangda, siz ham yigitsiz, biz ham. O'yinchingizni bir kechaga qoldirib ketasiz, biz hozirning o'zida naqd yuz ming beramiz. Bu yaxshilikcha bitadigan savdo.

Ikkinchi yigit urib yuborguday vajohatda gapni davom ettirdi:

Aks holda... shu qishloqdan ikkalang ham tirik chiqib ketolmaysan.

Rangi oqarib ketgan hofiz yigitlarga mo'ltirab qaradi:

Yigitlar, men bunaqangi ishlar bilan shug'ullanmayman. Men uni uch soatga yollab kelganman. Kap-katta xotin. O'z hayotiga o'zi xo'jayin. Qolaman desa, marhamat. Qolmayman desa zo'rlay olmayman.

Hofizning qo'rqqanini sezgani bois havolanib ketgan ikkinchi yigit bepisand ohangda gapirdi:

Sen zo'r'lamasang, biz zo'r'laymiz. Unga qo'shib seniyam.

Yigitlar, bu haqda sal keyinroq gaplashaylik, dedi vaqtdan yutishga ahd qilgan hofiz. Hozir qo'shiq aytishim kerak.

Uchala yigit mamnun ishshayganlaricha davraga qaytib borib, g'alati qiliqlar bilan o'yinga tushishda, Gulbadanni o'rtaqa olishda davom etishdi.

Mast Amir akadan umid yo'qligini anglagan Fayzulla oqsoqol izlashda davom etdi. Nihoyat bu ishdan naf yo'qligini anglagach, ichkarida o'tirgan "nozlik mehmonlar"dan xabar olib qaytayotgan Ashirmat tog'aga ro'paro' bo'ldi. Shundan keyin ular orasida quyidagi suhbat bo'lib o'tdi.

Quda, endi bizga javob bersangiz, dangaliga ko'chdi Fayzulla.

To'y endi qiziyapti-ku, quda.

Boraylik. Ancha o'tirdik. Bu yerning oqsoqoli o'zingizga o'xshaysiz.

Oqsoqoli ham, qorasoqoli ham o'zimiz, quda.

Bizga javob bersangiz, quda bova. Ancha yo'l...

Mayli, hozir borib artistlarga bir juft zo'ridan zakaz qilamiz, yuztadan otamiz, keyin o'rtaqa chiqib bir o'ynaymiz... Ana undan keyin sizlarga javob.

Ominni kim aytadi?

Ashirmat tog'a shu savol og'irlik qilganday chayqalgan holida biroz o'ylanib qoldi.

Ertaqa siznikida kelgan joyidan davom ettiradigan bo'lganimizdan keyin, ovmin qilib o'tirish shartmi, a, quda? dedi u nihoyat zo'r bir kashfiyot qilganday quvonib.

Shuni ertaroq aytmayisizmi, quda, men yarim soatdan beri davrani yopib beradigan oqsoqol qidirib yuribman.

Fayzulla noiloj Ashirmat tog'aga ergashdi. Ashirmat tog'a alpong-talpong qadam tashlab, Rohilaning yoniga bordi.

Qizim, artistlaringga ayt, bir juft zo'ridan bo'lsin, dedi u. Keyin kuyov bolaga javob beramiz.

Xo'p bo'ladi, tog'a.

Fayzulla ildam borib davrada raqs tushayotgan Mahfirat chechaga uchrashdi.

Checha, bo'ldi, bolalarga ayting, ikkita qo'shiqdan keyin ketamiz.

Mahfirat checha ikkilanib qoldi:

Hali ancha erta-yov...

Ancha kech!

Jahlini bosib turolmagan Fayzulla qattiqroq gapirib yubordi.

Rohila mikrofonni qo'lga oldi.

Har narsaning boshi bo'lganiday, oxiri ham bor. Mana, juda chiroyli o'tgan to'yimiz ham yakuniga yetay deb qoldi. Davradan hushtak, norozilik xitoblari eshitildi. Yo'q, yo'q, davramiz hali-beri tugamaydi. Biz bir juft sho'x qo'shiq va xuddi shunday sho'x raqsdan keyin faqat kuyovto'ra va u kishi birga go'zal oshyonimizga qadam ranjida qilgan aziz mehmonlarga javob beramiz, xolos. Davramiz esa davom etadi. Qani, marhamat, san'atkorlar!

Sho'x qo'shiq yangradi. Har narsaning oxiri shirin deyishadi. Davra ham raqs tushish istagida bo'lganlarga to'ldi. Fayzulla davraga kirib, ketish vaqti bo'lganini kuyovjo'ralarga bir-bir tayinlab chiqa boshladi. So'ng Azimni ergashtirib chiqib, "Damas" motorini yoqdi va mashinani darvozaga yaqin keltirib qo'ydi.

Nihoyat Mahfirat checha kuyovbola Mardonning ikkita singlisini ergashtirib chiqib keldi. Ular ortida alpong-talpong qadam tashlab kelayotgan kuyovjo'ralar. Fayzulla borib yigitlarning hammalarining o'z mashinalariga chiqishlarini nazorat qilib turdi.

Mashinalar karvoni yo'lga tushdi.

* * *

Qishloqdan chiqqan mashinalar katta yo'ldan bir chaqirim yurar-yurmas zulmat bag'ridagi daraxtlar orasidan Ismat boshliq yigirmatacha yigit yo'lga chiqdi va ko'chani to'sib oldi. Oldinda ketayotgan "Neksiya" keskin tormoz berib to'xtadi. Uning ortidan keyingisi. Eng orqada kelayotgan "Damas"ni boshqarib kelayotgan Fayzulla hayron bo'lib oldinroqqa o'tdi va yo'lni to'sib turgan, so'yil, armatura, toshlar bilan qurollangan yigirmatacha yigitni ko'rdi. Ularning jimgina sovuqqon turishida neder bir vahm, vahshat mujassam edi.

E, qiz vecherlariniyam!.. deb yubordi Fayzulla jahl bilan.

Mahfirat checha esa:

Voy o'lay, hali bunaqasiyam bormidi! dedi vahima bilan.

Fayzulla otilib mashinadan tushdi. Go'yo "Damas" eshigining ochilib-yopilishi signal vazifasini o'taganday birdan yo'lto'sar yigitlar vahshiyona qichqirganlaricha mashinalar tomon ottilishdi. Mashinalar ustiga tosh-kesaklar daranglab yog'ildi. Jon-jahdi bilan kuyov o'tirgan "Neksiya" yoniga yugurib yetib olgan Fayzulla eshikka yopishayotgan bezori yigitlardan birini tepib yuborarkan, "Neksiya" kapotiga kafti bilan daranglatib urdi.

Bos! Bos! deya qichqirdi Fayzulla jon holatda.

Shundan so'ng Fayzulla mashina chiroqlari yorug'ida yo'lni to'sib turgan ikki yigitni ko'rdi va ular tomon otildi. Fayzulla ikkala yigitni ikki tomonga itarib yubordi. Motori o'chmay turgan "Neksiya" chiyillab oldinga intildi. "Neksiya"ning qizil ort chirog'i tobora uzoqlashib ketaverdi. Qolgan mashinalar eshiklari qarsillab ochilib-yopildi. Kuyovjo'ralar Fayzullaga yordamga oshiqishdi. Ular orasida titrab-qaltirab turgan, montirovka ushlab olgan Azim ham ko'rindi.

Yo'lto'sarlar Fayzulla boshliq kuyovjo'ralarni asta halqa shaklida o'rab olishdi. Qo'lidagi uzun armaturani kaftiga urib-urib qo'yayotgan Ismat yovuzona iljayganча kuyovjo'ralar orasidan zo'r berib Nabini qidirardi. Ikkala guruh bir-biriga yaqinlashib kela boshladi...

Xuddi shu mahal qishloqdan chiqishdagi qayrilishda yana bir mashinaning burilgani ko'rindi. O'tkir nurlar ko'zga tashlandi. Boya raqqosa Gulbadanga tegajakliq qilgan uch yigit Ismatning yoniga kelishdi.

Ismat, bizning o'lja ham kelib qoldi. Biz uni olib ketaylik, keyin bu yerda o'zlaring bemalol razbor qilaverasizlar, dedi birinchi yigit.

Bu orada juda tez kelayotgan "Neksiya" yaqin kelib qoldi va keskin tormoz berib, nariroqda to'xtadi. Mashina eshigi ochildi, hofiz Rashidning qaltiragan ovozi eshitildi:

Yigitlar, men to'ylaringda xizmat qilgan artistman. Meni o'tkazib yuboringlar.

Orqada o'tirgan Gulbadanni tashlab ketsanggina o'tasan. Bo'lmasa yo'q! deya do'q urdi ulkan so'yilini namoyishkorona tarzda ko'z-ko'zlayotgan ikkinchi yigit.

Hofiz engashib kim bilandir pichirlab gaplashdi.

Raqqosam sizlarga qolaman deb va'da bermagan ekan, dedi axiyri hofiz boshini ko'tarib.

Bergan, va'da bergan! dedi uchinchi yigit ishonch bilan. Sen tashlab ketaver, biz o'zimiz bu masalani hal qilib olamiz. Bo'l tez!

Yo o'zingning ham, mashinangning ham tit-pitini chiqarib tashlaylikmi?

Hofiz yana engashib orqada o'tirgan Gulbadan bilan nimanidir pichirlashdi.

Yigitlar, iltimos, bu masalani ertaga, ichmagan paytlaring gaplashaylik.

E, onangni!.. Yomon so'kindi uchinchi yigit. Tashla degandan keyin yaxshilikcha tashla-ket-da! Nima qilasan gapni cho'zib!

Yigitlar... axir mehmonlaringimiz... ayanchli ovozda yalinishga o'tdi hofiz.

Endi o'zingdan ko'r!

tashlanishdi. Jon alpozda qaytib mashinasiga o'tirgan hofiz mashinasiga gaz berdi. Mashina chiyillab oldinga intildi. Hofiz jon-jahdi bilan signal chalgancha shiddat bilan yo'lto'sarlarga yaqinlashib kelaverdi. O'zlariga ishongan yigitlar yo'lni bo'shatishmadi. "Neksiya" shiddat bilan uchib keldi va yigitlarga yaqinlashgan mahal sal chapga qayrilib, ularni aylanib o'tib ketishga urinish asnosida chekkadagi yigitni urib yubordi. Yigit yo'l chekkasiga ko'ptokdek otilib ketdi. Buni ko'rgan uning yonidagi yigit dod solib yubordi. Hofizning mashinasi shiddat bilan uzoqlashib ketaverdi.

Mashina urib ketgan yigitning qonga botgan gavadasi yo'l chetida to'lg'anib, tipirchilardi. Buni ko'rgan mast yigitlar ham birdan hushyor tortishgandek bo'lishdi. Xuddi shu mahal yer gursillaganday bo'ladi. Chiroq-fonarlar ko'tarib olgancha shu tomonga chopib kelayotgan o'n besh-yigirma chog'li odam qorasi ko'rindi. Mashinalar farasi yorug'ida ularning oldida harsillab turgan Xayrulla ko'rindi.

Ismat, bu sening ishingmi? dedi Xayrulla jahl bilan. Uyalmaysanmi, begonaning emas, o'zingning qarindoshingning to'yida shunaqa qilishga?! Xayrulla birdan yo'l chetida to'lg'anib yotgan gavadani ko'rib qoldi. Nima bo'ldi?

Birinchi bo'lib o'ziga kelgan Fayzulla mashina urib ketgan yigit tomon otildi. Yigitning og'zidan qon kelgan, vujudi ojjizona titrab-qaltirab qo'ymoqda edi, xuddi hayot bilan asta-sekin vidolashayotganday.

Fayzulla yoniga kelgan Xayrullaga qaradi. Ismatning yonida turgan yo'lto'sar yigitlardan besh-oltitasi asta-sekin qorong'ulikka chekinib, keyin shataloq otib qochib qoldilar.

Buni tez balnisaga oborish kerak, dedi Fayzulla. Ko'tar.

Xayrulla engashib yigitni ko'tarib oldi. Fayzulla chopib borib "Damas"ini shu yerga olib keldi. So'ng baqa bo'lib qotib qolgan Mahfirat chechaga qaradi.

Checha, siz qizlarni olib bir amallab narigi mashinalarda yetib olarsizlar. Biz buni, Fayzulla Xayrullaning qo'lidagi gavadaga ishora qildi, balnisaga oboramiz.

Xo'p, dedi Mahfirat checha qo'rqa-pisa.

Mahfirat checha va ikkita qizni amallab ikki "Neksiya" bilan bitta "Jiguli"ga joylashishdi. Ular yo'lga tushishdi. Xayrulla mashina urib yuborgan yigitni Fayzullaning mashinasiga joyladi, o'zi uning yoniga o'tirdi. Shundan keyingina "Damas"ga o'tirgan Fayzulla qalt-qalt titrayotgan Azim yonidagi o'rindiqqa kelib joylashgach, Xayrullaga o'girildi.

Qayoqqa hayday?

Bu yerdan obbalnisagacha o'ttiz kilometr, tushuntirdi Xayrulla. Avval to'g'riga, keyin...

Ketdik, dedi Fayzulla.

"Damas" oldinga intildi. Chiroq-fonarlar ko'tarib Xayrullaga ergashib kelganlardan biri, qirq yoshlardagi erkak jahl bilan yerga tupurdi:

O'yindan o't chiqdi axiyri. Bir kuni shunday bo'lishi aniq edi...

Kelganlar asta-sekin o'girilib, qishloq tomon yo'lga tushishdi. Yo'l o'rtasida hamon qo'lida armatura tutib turgan Ismatning yolg'iz o'zi qoldi.

* * *

Fayzulla, Azim va Xayrulla viloyat markaziy shifoxonasining reanimatsiya bo'limi binosi yonida tong ottirishdi. Fayzulla do'xtirlarga, hamshiralarga qanchalik yalinib-yolvormasin, foyda bermadi uni ichkariga qo'yishmadi. Yarim kechasi ular yoniga hofiz Rashidning vahimaga tushgan akasi, ellik yoshlardagi Nurilla aka qo'shildi.

Ikki qavatli sarg'imtir bino qarshisida kichkinagina oshxona bor. Oshxona yonida to'rtta so'ri. Unda bemorlarning yaqinlari joylashib olishgan. Joy yetmaganlar shunday yerga sholcha to'shab o'tirishibdi.

Ufqda quyoshning ilk nurlari ko'zga tashlana boshladi. Kun ancha salqin, odamning etini junjiktiradi.

Uzr, Fayzulla aka, deb qoldi bir mahal Xayrulla. Kecha xatolik mendan o'tdi. O'zim sizlarni qishloqdan chiqarib qo'yishim kerak edi. Chalg'ib qopman.

Fayzulla beruh qo'l siltadi.

Xayrulla aka, qiziqib so'radi Azim. Sizlarda hamma to'yning oxiri urish-janjal bilan tugaydimi deyman?

Aroq bor joyda g'urbat bor, janjal bor, xo'rsindi Xayrulla. Shuning uchun oqsoqollarimiz endi to'ylarni kunduzi o'tkazamiz deb harakat qilib yotishibdi. Lekin hozircha bunig iloji bo'lmayapti. Yoshlarning o'zi bunga ko'nmayapti.

Qaygadir yo'q bo'lib qolgan Nurilla aka qo'l qovush-tirgan ko'yi ularga yaqinlashdi.

Do'xtirlar bilan gaplashdim. So'raganini berdim. Ishqilib, yordam qilamiz deyishdi. Bitta so'ri olib qo'ydim, dedi u qandaydir maqtanayotganday ohangda.

Qanaqa so'ri? hayron bo'lib so'radi Fayzulla.

Nurilla aka bino qarshisidagi o'rtasidagi xontaxtasiga noz-ne'matlar qo'yilgan, xontaxta atrofiga ko'rpachalar to'shalgan chorpovalardan birini ko'rsatdi:

Hov anavi, eng birinchisini. Yaxshilab bezab, meva-chevagacha tayyorlatib qo'ydim. Oshpazlar bilan gaplashdim. Kuniga uch mahal issiq ovqat qilib berib turishadi. Kamiga o'zim tandir, jiz-piz opkelib turaman.

Qanaqa tandir? Kimga? battar ajablanti Fayzulla.

Kimga bo'lardi, bemorimizning yaqinlariga-da. Ular yerda o'tirishmasin, deb oldindan zakaz qilib qo'ydim so'rini. Bir haftami, o'n kunmi qancha kerak bo'lsa shunchasiga turib beraman, g'urur ila ko'kragini kerdi Nurilla aka.

Bu yerda shunaqa odat bor, tushuntirishga urindi Xayrulla. Aybdor tomon jabrlangan tomonning joyini, ovqatini ko'taradi. Fayzulla tutaqib ketdi:

ovqat o'tadimi? Tandır o'tadimi? Yo so'rida, yumshoq ko'rpachalar ustida yonboshlab yotishadimi?

Falokat bu, uka, falokat, darhol vaziyani yumshatishga urindi Nurilla aka. Axir hech kim atay bunday bo'lsin demagan-ku. To'g'rimi?

Endi shunday qilsa qarindoshlari unchalik da'vo qilishmaydi-da, yana tushuntirish berdi Xayrulla. Agarda hammasi birlashib "O'zi bolaning ko'zi yaxshi ko'rmasdi" yo "Shabko'r edi" deyishsami...

Tushunarli... xo'rsinib qo'ydi Fayzulla. Xo'p, bo'lmasa biz ketdik. Siz qolavering... so'ri-po'riyu, tandirlaringiz bilan, aka.

Fayzullaning gap ohangidagi kesatichni anglamagan Nurilla aka ko'krak kerdi:

Albatta. Qancha kerak bo'lsa, shuncha xizmat qilaB-miz.

Fayzulla jahl bilan darvoza tomon yurdi. Unga Azim bilan Xayrulla ergashdi.

Xo'sh, endi nima ish qoldi bizga? Xayrullaga o'g'irilib so'radi Fayzulla.

Bugun soat o'n bir-o'n ikkilarda kelib kelinni olib ketasizlar. "To'qqiz tovoq", "to'sh" degan kichkinagina marosimlarmiz bor. Yo'lda kelin-kuyov, kelindugona, kuyovjo'ralar biron kafega kirib, shashlik-pashlik, morojniy yeyishadi. Keyin bo'ldi, uyga.

Fayzulla yengil nafas oldi:

Xayriyat...

* * *

Biron soatlarda qishloqqa yetib kelishdi. Fayzulla oldiga chopib chiqqan akasiga vaziyatni tushuntirdi. Mashina urib ketgan bolaning hayoti xavf ostida emasligi eshitgan Saydulla aka ancha yengil tortdi.

Bir piyola choydan keyin Azim darvoza yonida "Damas" ini yuvishga tutindi.

Hormang, hormang, deya kelib qoldi uning yoniga to'y raisi Xalil oqsoqol. Yaxshi borib keldilaringmi, uka.

U yer qishloq emas, arining uyasi ekan-ku, Xalil aka, dedi Fayzulla o'pkalagan ohangda.

Xalil oqsoqol pinak buzmadi:

Hammasini eshitdim, uka. e'tibor berib o'tirishga arzimaydi.

Fayzullaning og'zi ochilib qoldi:

Chindan-a?

Sen bola televizor ko'rib turasanmi? savolga savol bilan javob qaytardi Xalil oqsoqol.

Ha, dedi Fayzulla ajablanib. Nimaydi?

Televizor ko'rsang, anavi kinoda bir chol nima deydi? Esingga tushdimi? "Urish-janjal bo'lmagan to'y to'yimi?" deydi. Ha, endi sen ham akamning to'yida shuytib xizmat qibidim, deb eslab yurarsan.

Lekin...

Lekin-pekinini qo'yib tur, uka. Buni to'y deb qo'yibdilar. Hozir darrov borib kelinni olib kelishga bosh-qosh bo'l. Xayr qilsang butun qil, deydilar. Bir ishni boshladingmi, oxiriga yetkaz, chala tashlab ketma.

Fayzulla ikkilanib qoldi:

Kechagi mashinalar borarmikan? Bir-ikkitasining tomi qiyshaygan, ikkitasining oynasi singan, bittasining kapoti pachaq bo'lgan deyishdi.

Xalil oqsoqol beparvo qo'l siltadi:

Kechagi bo'lmasa, boshqasi topilar. To'ychilikda har narsa bo'ladi. Barisiga qovoq-tumshuq qilib ketaverish kerak emas. Xo'pmi?

Xo'p, oqsoqol, Fayzulla qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

Xavotir olma, uka, Fayzullani yupatgan bo'ldi Xalil oqsoqol. Shayton suvi kuchini faqat qorong'i tushgandan keyin ko'rsatadi.

Kunduz bemalol borib, kelinni olib kelaverasizlar.

Xo'p, oqsoqol. Men mashinani bir ko'zdan kechirib qo'yay bo'lmasa.

Mayli. Akangning to'yida bir xizmat qilsang qipB-san-da.

* * *

Kuyovjo'ralar tayyor bo'lguncha bir soatcha vaqt o'tdi. Keyin Saydulla aka bilan Xalil oqsoqol kelinni olib kelishga mashina izlab ketishdi.

Nihoyat yana bir soatlardan so'ng ikkita "Neksiya", ikkita "Jiguli", bitta "RAF" mikroavtobusi va "Damas"dan iborat mashinalar karvoni signallarini chalgancha yo'lga chiqishdi.

Mashinalar kelinning uyiga yetib kelganida soat o'n ikkidan oshib qolgandi.

Kuyov va kuyovjo'ralar, "Damas"dagi Mahfirat checha va bitta juvon hovliga kirib ketishdi. Fayzulla mashinasini chekkaroqqa olib o'tgach, Azimni olib, hovliga kirdi. Shu zahoti ularni to'rt-besh erkak qurshab oldi.

Bosh quda siz ekansiz, dedi erkaklardan biri iddao bilan. Qani, avval aroq pulini cho'zib qo'ying-chi!

Fayzulla hayron bo'ldi:

Qanaqa aroq puli?

Biz sizlarni kutib o'tirib to'rtta aroq ichdik, tushuntirdi labini yalab turgan boshqa erkak. Demak, o'n ming berishlaring kerak.

Urf-odatlarimiz shuni talab qiladi, uka, oraga qo'shildi yana biri.

Fayzulla noiloj o'n ming so'm chiqarib berdi. Erkaklar ularni o'tqazib yuborishdi. Endi ota-bola yoniga soqoliga oq oralagan bir mo'ysafid yaqinlashdi.

Quda, kelinning tog'asi uchun zudlikda o'n besh ming so'm berarkansiz, dedi mo'ysafid ehtirom bilan.

Fayzulla indamay o'n besh ming so'm sanab berdi.

O'tin yoruvchilar uchun bor-yo'g'i olti ming, quda, yoddan biladigan ro'yxatini o'qishda davom etdi mo'ysafid. Oshpazga to'qqiz ming. Jami yana o'n besh ming.

Yana kimga qancha berishim kerak, hammasini birdan ayta qoling.

Nikoh qiyadigan mullaga o'ttiz, mullani olib kelib-olib borib qo'yadigan mashinaga o'n... xullas, jami yana ellik mingcha bersangiz yetib qolar.

Achchiq narsa yeganday afti burishib ketgan Fayzulla mo'ysafidga cho'tagidan bir dasta besh yuz so'mlik chiqarib berdi.

Qarzini undirganday xotirjam mo'ysafid nari ketgan mahal Azim shivirladi:

O'h-ho', man to'yga keldik desam, "ber-ber"ga kelibmiz-ku.

Urf-odatlarmiz shu, o'g'lim, qo'llarini ikki yonga yoydi Fayzulla.

Nima, bu bilan qadimda ham aroq puli bo'lgan demoqchimisiz, adajon? ajablanib so'radi Azim.

Bu orada qaytib kelgan mehmon ularni ichkariga boshladi:

Marhamat qilsinlar, azizlar.

Ota-bola yana ichkariga yurishdi. Ammo kechagi tun tajribasidan o'zicha xulosa chiqargan Fayzullaning ichkariga kirib olib, bemalol o'tirgisi kelmadi.

Siz bemalol, otaxon, biz bir kuyovjo'ralardan xabar olaylik-chi.

Fayzulla o'g'li bilan ayvondan o'tib, ichkari xonaga mo'raladi. Kuyovjo'ralikka boraverib tajribasi oshib qolgan yigitlar oyoq kiyimlarini yechmasdan xonaga bostirib kirib olishgandi.

Uyga, yangi ko'rpalar ustiga tuflida kirishning nima siri bor, adajon? yana hayron bo'lib so'radi Azim.

Fayzulla bu urfni bilardi. Shu sababli darhol javob berdi:

Shunday qilmasa, yangalar tuflilarni o'g'irlab qo'yishadi. Keyin o'z tuflingni o'zing sotib olishing kerak.

Ha-a...

Ikkita yanga kuyovjo'ralar dasturxoniga ikkita ulkan tovoq olib kirishdi.

Bu tovoqlar faqat besh yuztalik, ming so'mlik bilan to'lishi shart! e'lon qildi yangalardan biri. Yuz so'mlik, ikki yuz so'mliklar qabul qilinmaydi!

Kuyovjo'ralar hushtak chalib yuborishdi.

Menda hammasi yuz so'mlik, ellik so'mlik! baqirdi Nabi. Olsangiz shu, olmasangiz katta ko'cha!

Agar bitta ikki yuzlik qo'shilib qolsa ham kelinni sizlarga bermaymiz! po'pisa qildi yana o'sha yanga.

Unda kelin qariqiz bo'lib o'tiraveradi!

Tortishish, dahanaki jang avjga chiqdi. Xullas, bir amallab tovoqlar to'ldirildi. Tovoqdan keyin yangalar likopchalar, choynaklar olib kirishdi.

Bularning hammasi pul bilan to'lishi kerak, yana e'lon qildi gapdon yanga. Shart o'sha-o'sha: faqat mingtalik, hech bo'lmasa besh yuztalik tashlash shart!

Shu payt kimdir Fayzullaning yengidan tortdi. Fayzulla o'girildi. Uning qarshisida boyagi mo'ysafid muloyimgina bo'lib turardi.

Uzr, quda, boya shoshilinchda esimdan chiqib qolibdi. Ko'rpa ko'tarib chiqqanga, kelinning ukasiga, momosiga atab ozginagina chiqim qilishingizga to'g'ri keladi...

Fayzulla cho'ntagini kavlati:

Qancha?..

Fayzulla pul chiqarib ulgurmasidan burun orqadan yetib kelgan Ashirnat tog'a Fayzullani mahkam quchoqlab oldi.

E, quda, bormisiz! U ichkariga ishora qildi. Kechagidan keyin boshim yorilib ketay deyapti. Yuring, yuzta-yuzta qilib olaylik.

Siz bemalol, quda. Men ruldaman, dedi Fayzulla shoshib.

E, aytdim-ku, bu territoriyada "Ashirnat tog'aga tegishli odamman" desangiz bo'ldi, lyuboy GAI chestKj berib qoladi! Gapimga javob beraman, quda!

Fayzulla yana bir bor qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

Siz bahuzur. Biz borib mashinadan xabar olaylik.

O'zingiz bilasiz. Zorimiz bor, zo'rimiz yo'q. Qudasining ortidan norozi tarzda qarab qo'ygan Ashirnat tog'a ichkariga kirib ketdi.

* * *

Oradan bir soatcha vaqt o'tdi. Fayzulla issiqda terlab-pishib ketsayam, o'g'li bilan "Damas" yonida turaverdi.

Bir soatdan oshdi, dedi soatiga qarab qo'yB-gan Fayzulla. To'shni yeb bo'lishgandir. Bir xabar olay-chi.

Shu payt ichkaridan shovqin-suron bilan kuyovB-jo'ralar chiqib kelishdi. Kelin-kuyov "Neksiya"ga o'tiB-rishdi. Kelindugonalar qolgan mashinalarga va "RAF"ga. Uch-to'rtta keksaroq ayol va Mahfirat yanga, uning hamrohi "Damas"ga chiqishdi.

Amir aka Fayzullaning yoniga gandraklab keldi:

Kechqurun ko'rishamiz, xudo xohlasa, quda.

Albatta, quda, albatta.

Soat rovno yettiga bir katta zakaznoy avtobusda qavm-qarindoshlar bir bo'lib yetib boramiz.

Kutamiz.

Oq yo'l sizlarga. Omin, ollohu akbar.

Uy egasiga qo'shilishib chiqqanlar yuzlariga fotiha tortishdi. Mashinalar karvoni endi yo'lga tushgan mahali birdan taqqa to'xtadi: keyingi ko'chada besh-olti yigitcha arqon tortib turardi.

Fayzulla mashina oynasidan boshini chiqarib oldindagilarga baqirdi:

Ro'molcha-po'molcha bo'lsa berib yuboringlar.

"Damas"da o'tirgan keksaroq ayol bosh chayqadi:

E, uka, bular ro'molchaga ko'nmaydi. U zamonlar o'tib ketgan. Bersangiz ikkita aroqqa yetarli pul bering yo aroqning o'zini.

Fayzulla hayratdan hushtak chalib yubordi:

Yo qudratingdan! So'ng darrov cho'ntagini kavlati. Ey bola! Bu yoqqa kel. Mana ikki aroqning puli!

Bir yigitcha chopib kelib pulni olgach, uning sheriklari arqonni tushirishdi. Mashinalar karvoni signallarni du-dutlatganicha yana yo'lga tushdi. Ammo katta yo'lga burilayotgan mahal karvon yana to'xtashga majbur bo'ldi. Bu safar ellik yoshlardagi bir tepakal, baland bo'lyi odam yo'lga chiqib, arqon topolmagan shekilli qulochini keng yoyib olgandi.

"Damas"dagi ayol kuldi:

O'lsin, bu o'zimizning Tursunboy alkash. Bunga bitta vinoning puliyam yetadi. Shu bilan kechgacha xursand bo'lib yuradi.

Tursunboy akajon, deb chaqirdi erkakni Fayzulla oynadan boshini chiqarib, baraka topkur, keling, oling, mana solig'ingiz.

Tursunboy aka deganlari xursand bo'lganча lapanglab chopib kelib pulni oldi. Mashinalar karvoni yana yo'lga tushdi.

Barcha tashvishlar, yelib-yugurishlar, asabbuzarliklar ortda qolganday. Saydulla akaning hovlisida o'tayotgan qasira-qusur to'y ham yakunlanay deb qoldi. Qo'shiq avjida. O'rtada ikkita katta-katta guruh raqsga tushayapti. Har guruhda bittadan raqqosa ayol. Ular mehmonlarga qistirilgan pullarni chaqqonlik bilan terib olishmoqda. Davrada qizil bo'yinbog' taqib olgan Safar aka ham qo'llari keng yoyganча o'ynayapti. Mast Amir aka o'zidan ham mast Saydulla akani quchoqlab olgan.

Endi siyig'imiz bitdi, quda. Qaytmasak bo'lmaydi. Amir akaning tili arang aylanardi.

To'y endi qiziyapti, quda, rozi bo'lmadi Saydulla aka. Ertalabagacha o'tirmasak hisobmas. Bir maza qilaylik.

Ertaga qizimizning orqasidan kelamiz, quda. O'shanda har qancha o'tirsak o'tiramiz. Ammo-lekin hozir qaytishimiz kerak.

Bu marosimni o'tkazish ham zimmasida turgan qarz ekanligini eslab qolgan Saydulla aka atrofga bezovtalanib alangladi. Uning yoniga ro'y raisi Xalil oqsoqol chopqillab ketib keldi.

Xalil aka, bular ketamiz deyishayapti, dedi Saydulla aka.

Ayollariyam shu gapni aytirib yuborishgan ekan. Endi bularga javob beraylik. Ertaga baribir kelishadi-ku.

Unday bo'lsa mayli, oqsoqol.

Xalil oqsoqol Fayzullani chaqirdi:

Uka. Bularni kuzatib qo'y.

Xo'p, Xalil aka.

Fayzulla arang qadam tashlayotgan Amir akani qo'ltig'idan ushlab davradan olib chiqdi. Amir akaga u bilan birga kelgan qarindosh-urug'lar, erkak va ayollar ergashishdi.

Hovlidan yuz qadamча beriroqda bahaybat "Laz" avtobusi turardi. Avtobus yonidagi ustunga o'rnatilgan chiroq "Laz" ichini sutday yoritib turibdi. Unga ichida kelin tarafdan kelganlar mehmonlarning bir qismi, jumladan bolali ayollar chiqib olishgandi.

Fayzulla mast-alast erkak mehmonlarning avtobusga chiqishini sabr bilan, qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda kutib turarkan, ora-sira:

Xush ko'rdik... xush ko'rdik... deb qo'yardi.

Mehmonlarning deyarli hammasi avtobusga chiqdi. Haydovchi motorni o't oldirdi. Yengil tortgan Fayzulla uy qadam bir necha qadam yurgan chog'ida to'satdan taqqa to'xtadi. Uni ellik qadamча naridagi elektr transformatori yonida to'planib turgan yigitlarning o'zlarini tutishlari shubhalantirgandi. Fayzulla diqqat bilan razm soldi va yon-atrofdan aroq, vino shishalari sochilib yotganini, yigitlarga kuyovjo'ra Nabi nimalarnidir o'rgatayotganini ko'rdi. Fayzulla oldingi yurishini ham, yurmasligini ham bilmay ikkilanib qoldi. Bu orada avtobus yo'lga tushdi. Shu payt darvozadan Azim chiqib keldi.

Ada, mehmonlar ketishdimi? deb so'radi u.

Ha, o'g'lim, ketishyapti.

Adajon, deya Azim to'yxona ishora qildi, joy to'rt yuz kishilik ekan. Nima, amakim shunaqa boymilar? Bunday to'y o'kazishga shuncha pulni qaerdan oladilar?

Fathulla kulimsirab qo'ydi:

Qarz, o'g'lim, qarz... Bunaqa to'ydan keyin qozon to'rt-besh yil suvga tashlab qo'yiladi

Rosa charchadingiz-a, ada.

Eng muhimi to'y tinch o'tyapti...

Xuddi shu mahal, Fayzulla shu so'zlarini aytayotgan chog'ida bahaybat "Laz" avtobusi chayqalib transformator yoniga yetdi.

Birdan chiroq o'chdi. Zulmat sukunatini nimalarningdir tunuka, oynaga qarsillab urilishi buzdi. Kimdir, aftidan ayol kishi jon

achchig'ida chinqirib yubordi. Fayzulla jon halpida avtobus tomonga otili. Chiroq yondi va yigirma yaqin yigitcha mehmonlar o'tirgan avtobusni tosh, temir parchalari bilan toshbo'ron qilayotgani ko'rindi! Ayollarning, bolalarning chinqirig'i olamni tutdi.

Fayzulla shu tomonga chopib borayotib aniq ko'rdi: oynaga qapishib qolgan qirq yoshlardagi, ro'mol o'ragan juvon jon-jahdi bilan uch-to'rt yoshlar chamasidagi bolasini bag'riga bosib, egilib olganча uni nimadandir himoya qilishga urinayapti. Aynan shu ayol qarshisidagi oynani sindirib ichkariga o'tgan tosh to'g'ri ayolning boshiga tegdi. Singan oyna bo'laklari esa ayolning yelkasiga, qo'llariga sanchildi.

Fayzulla qichqirib yubordi:

Bas qilinglar! To'xtanglar!

Ammo ichkilik ta'sirida quturib ketgan yigitlar avtobusni toshbo'ron qilishda davom etaverishdi. Yorilgan boshidan qon oqayotgan haydovchi gursillab rulga yiqildi. Avtobus ortga qarab yurdi va yo'l chetida turgan Fayzullaning "Damas"ini g'ijirlatib bosibgina to'xtadi. Fayzulla avtobusga yetib keldi, gavdasi bilan oynalarni to'sdi. Shu mahal ulkan temir bo'lagi Fayzullaning ortidagi oynaga kelib tegdi. Singan katta oyna bo'lagi qo'porilib pastga tusha boshladi. Ammo Fayzulla teskari o'girilib, toshbo'ron

qilayotganlardan avtobusda o'tirgan mehmonlarni himoya qilayotgani uchun buni ko'rmadi. Uchlari o'tkir, qirrali oyna bo'lagi

to'g'ri Fayzullaning boshiga tushmoqda edi. Xuddi shu soniyada Azimning "Adajo-on!" degan hayqirig'i eshitildi. Azim uchib kelib dadasini nariga itarib yubordi. Fayzulla yiqilib tushdi. Qo'porilib tushayotgan oyna o'tkir uchi bilan "g'arch" etib Azimning bo'yniga sanchildi. Yigitchaning bo'ynidan qon favvora bo'lib otili.

Buni ko'rgan Fayzulla jon achchig'ida o'rnidan turarkan, o'kirib yubordi:

Bola-am, Azimjon!..

Azim "shilq" etib avtobus yoniga, sertuproq yerga quladi... Atrofga chang ko'tarildi...

Sahar palla.

Bir kechada sochi oppoq oqarib ketgan Fayzulla viloyat markaziy shifoxonasining reanimatsiya bo'limi binosi eshigi yonida cho'k tushganча, boshini changallab o'tiribdi. Uning yoniga basavlat, qizil bo'yinbog' taqqan Safar aka asta yaqinlashdi va yo'talib qo'ydi. Fayzulla boshini ko'tardi. Yig'layverganidan uning ko'zlari qurib qolgan. Bu ko'zlarda mislsiz alam va og'riq aks etardi.

Ukajon, bemalol o'tib o'tiravering, shunday deya Safar aka o'rtadagi xontaxtasiga turli noz-ne'matlar qo'yilgan chopoyaga ishora qildi, so'rini zakaz qilib qo'ydim. Oshpazlarga tayinladim. O'zim ham xizmatimizda bo'laman. Eshitdim, kelin ham kelayotgan emish. Har qalay, sharoit bo'lsa yaxshi-da.

Fayzulla shuncha urinsa ham, gap nima haqida ketayotganligini tushunmadi:

21 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

This is not registered version of TotalDocConverter

Endi, ukajon, bir jiyani bor, Safar aka yolg'ondan xi-xilab kuldi. O'ta sho'x. Yerga ursang ko'kka sapchidi. Maktabni bitirganiga endi bir yildan oshdi. Tuzukroq bir ish topib beramiz deb turibmiz. Bir-ikki marta sho'xlik qilgan ekan, ishqilib, bir joyiga gard yuqirtmay qutqarib oldik. Buni qarang, kechagi to'polonchilar orasida shuyam bor ekan. Milisa olib ketibdi. Onasi zor yig'lab o'tiribdi. Har qalay, bir yurtning odamimiz. Akangizga ko'p xizmatlarimiz singgan. Shu jiyanchani deyman-da... yoshlik qilib qo'yibdi... Lekin o'zi xo'b pushaymon... Buning ustiga u faqat nomiga bir-ikkita kesak otgan ekan... Shuni deyman-da, milisa bilan gaplashib qo'ydim, prokurorminan gaplashdim, endi o'zlari bir og'izgina "Shu bolaga da'voyim yo'q" deb qo'ysangiz... O'la-o'luncha xizmatimizda bo'lardik... Saydulla ham bir yangi traktor so'raganday bo'layotgandi... Amallaymiz... Sizga o'xshash aka-ukalar bor... Xi-xi...

Nihoyat gap nimadiligini anglagan Fayzulla asta o'rnidan turdi. Uning rangida rang qolmagandi.

Qotil! Fayzulla to'satdan Safar akaning yoqasiga chang soldi. Qotil! Sen qotilsan! Jiyaning ham qotil!

Bo'g'ilib qolgan Safar aka jon alpozda baqirib yubordi:

Yordam beringlar! Kim bor!

Ichkaridan chopib chiqqan oq xalati shifokorlar bir amallab Fayzullaning changak bo'lib qotib qolgan qo'llarini Safar akaning yoqasidan bo'shatib olishdi va endi butun vujudi qalt-qalt titrayotgan, og'zidan ko'pik sachrayotgan, ora-sira "Qotil! Qotil!" deb qichqirayotgan Fayzullani ichkariga ko'tarib olib kirib ketishdi.

Men buni odam deb so'ri zakaz qilib o'tiribman-a! Yoqasini, qizil galstugini to'g'rilyotgan Safar aka Fayzullaning orqasidan baqirdi. Qip-qizil jinni ekan-ku! Jinnining joyi esa jinnixonada bo'lishi kerak! Buni tashkillashtiramiz!

Shunday deya Safar aka shosha-pisha xontaxtasi bezatilgan so'ri tomon yurdi.

* * *

Safar aka "tashkillashtirdi".

Asablari chatnab turgan Fayzullani asab kasalliklari bo'limiga yotqizishdi.

Ertasi kuni peshinga yaqin shahardan Dilnoza bilan Habiba ham bir amallab yetib kelishdi.

Kattagina palatadagi karavotda bemor xalati kiydirilgan, bukchayib qolgan Fayzulla o'tiribdi. Dilnoza karavot qarshisidagi odmi taburetkada. Deraza yonidagi nogironlar aravachasida Habiba. Xonada o'lik sukunat.

Nogahon palata eshigi g'iyqillab ochildi va oq xalati shifokor kirib keldi. G'amgin shifokor nimagadir Fayzullaga emas, Dilnozaga murojaat qildi:

Kennoyi, umid bor... Lekin... bir umr...

O', bu so'zlarning mudhish ma'nosini er-xotin tushunishmasa ekan!

Nima?.. Dilnoza dodlab yubordi, o'zini karavotga otib sochlarini yula boshladi. Bolam! Bolajonim! Bola-am!

Bukchayib o'tirgan holida yelkalari titray boshlagan Fayzulla to'satdan oppoq sochlarini mahkam changallaganicha shiftga boqdi va o'kirib yubordi:

Azimjonim!.. Shoirgina bolajonim!

Ota-onasiga angrayib qarayotgan Habiba nihoyat gap nimadiligini tushunib yetdiyu, izillab yig'lab yubordi:

Akajon! Akajonginam!..

Bu uch sho'rlik bandaning dardli oh-nolasi butun olami tutgandek... Yo'q, ana, qaydandir bu shikasta faryodlarga qandaydir musiqa ohanglari qo'shilayotgandek. Ha, bu karnay-surnayning olis-olislardan kelayotgan sadosiga o'xshaydi. So'ng esa "To'ylar muborak!" qo'shig'i yangrayotgandek. Ammo bu uch sho'rlik banda dardu alam, baxtsizlik va g'urbat, armon va g'ussaning tubsiz ummoniga g'arq bo'lganlaricha achchiq ko'z yoshlarini to'kmoqdalar, sochlarini yulmoqdalar, yoqalarini yirtmoqdalar... Zotan, ularga ko'z yoshidan o'zga nima qoldi? Ularda armondan o'zga yana ne his qoldi? Ularga iztirobdan bo'lak yana ne tuyg'u qoldi? Ularning bundan keyingi hayotlari hayotmi?.. Yig'la, ey dil, yig'la...

2009 yil